2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 185 (1511), 2025-yil 6-sentabr, shanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON — AQSH STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARINI YANADA MUSTAHKAMLASH VA HAMKORLIKNI KENGAYTIRISHGA ALOHIDA E’TIBOR QARATILDI

5-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp bilan telefon orqali muloqoti bo‘lib o‘tdi.

Muloqot tafsilotlari haqida Yetakchimizning matbuot xizmati xabar berdi. Unga ko‘ra, muloqot chog‘ida O‘zbekiston — AQSH strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishning amaliy jihatlari batafsil ko‘rib chiqildi.

Suhbat avvalida AQSH Prezidenti so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va aholi farovonligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ortga qaytmas islohotlarni yuksak baholadi va qo‘llab-quvvatladi.

Davlatimiz rahbari, o‘z navbatida, Prezident Donald Trampni AQSH ma’muriyati olib borayotgan ichki va tashqi siyosatning ulkan natijalari bilan samimiy tabrikladi. Amerika tomonining xalqaro va mintaqaviy mojarolarni tinch yo‘l bilan hal qilish, global xavfsizlik hamda barqarorlikni ta’minlashga qo‘shayotgan hissasi va sa’y-harakatlari alohida qayd etildi.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Prezidenti va Qo‘shma Shtatlar oliy rahbariyati o‘rtasidagi muloqotlar muntazam davom etib kelayotganini ta’kidlab o‘tish lozim. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev Donald Trampning birinchi prezidentlik muddati chog‘ida u bilan Arab-musulmon mamlakatlari va AQSH sammiti hamda BMT Bosh assambleyasining Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tgan 72-sessiyasi doirasida uchrashgan edi. Oradan ko‘p o‘tmay ikki davlat yetakchilari telefon orqali muloqot qildilar.

2018-yilning may oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining AQSHga birinchi rasmiy tashrifi bo‘lib o‘tdi va strategik sheriklik aloqalarining yangi davriga asos solindi. Tashrif doirasida Prezident Donald Tramp, davlat kotibi, vazirlar, senatorlar va kongressmenlar bilan uchrashuvlar o‘tkazildi.

O‘zaro hamkorlik aloqalarining mustahkamlanishiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil kuzida AQSHga amalga oshirgan tashrifi ham katta turtki berdi. Mazkur tashrif doirasida Nyu-Yorkda Markaziy Osiyo “beshligi” va Amerika Qo‘shma Shtatlar o‘rtasida “C5+1” formatidagi birinchi sammit bo‘lib o‘tdi. Ikki tomonlama uchrashuv chog‘ida O‘zbekiston va AQSH yetakchilari davlatlararo hamda mintaqaviy hamkorlikka oid dolzarb masalalarni muhokama qildilar.

Parlamentlararo aloqalar ham izchil rivojlanmoqda: o‘tgan yillar davomida kongressmenlardan iborat delegatsiyalar mamlakatimizga bir necha bor tashrif buyurdi, Oliy Majlis vakillarining turli vaqtlarda Qo‘shma Shtatlarga amalga oshirgan tashriflari davomida amerikalik hamkasblari bilan samarali uchrashuvlar o‘tkazildi.

Bu safargi telefon orqali muloqotda ham ikki mamlakat o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi.

Ustuvor tarmoqlarda biznes kooperatsiya loyihalarini ilgari surish va savdo bitimlari hajmini tubdan oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlash joizki, so‘nggi yillarda o‘zaro savdo ko‘rsatkichlarining barqaror o‘sishi kuzatilmoqda. 2024-yilda tovar ayirboshlash 15 foizga oshib, 882 million dollarni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich yaqin yillarda sezilarli darajada oshishi kutilyapti.

Istiqbolli kooperatsiya loyihalari portfeli fuqaro aviatsiyasi, muhim mineral resurslar, elektrotexnika sanoati, energetika, qishloq xo‘jaligi, raqamli texnologiyalar, moliya, innovatsiyalar, ta’lim va ko‘plab boshqa yo‘nalishlarni qamrab olgan.

O‘zbekistonda AQSH kapitali ishtirokidagi 314 ta korxona faoliyat yuritmoqda. Ularning yarmidan ko‘pi yuz foiz Amerika kapitali hisobiga ishlaydi. Taqqoslash uchun: 2017-yilgacha ularning soni yuztadan bir oz oshar edi. O‘tgan yil yakunlari bo‘yicha esa O‘zbekistonda AQSHning 636 million dollarlik investitsiyalari o‘zlashtirildi.

Mamlakatimizda AQSHning “Air Products”, “General Electric”, “General Motors”, “Hyatt”, “John Deere”, “Boeing”, “Honeywell”, “Coca-Cola”, “Silverleaf” kompaniyalari faol ish olib boryapti. Mamlakatimiz bozoriga yangi kompaniyalarning kirib kelishida O‘zbekiston Prezidentining AQSH biznes vakillari bilan uchrashuvlari muhim o‘rin tutadi. Bu muloqotlarda davlatimiz rahbari investitsiyaviy loyihalarni ko‘rib chiqadi, ularni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha mas’ullarga topshiriqlar beradi.

Prezidentimizning Amerika Qo‘shma Shtatlariga 2023-yil sentabr oyida amalga oshirgan tashrifi ham bunday yuzma-yuz uchrashuvlarga boy bo‘lgan edi. O‘shanda Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston — Amerika biznes forumi yakunida jami 11,2 milliard dollarlik bitim va kelishuvlarga erishildi, “Citigroup”, “CNH”, “Boston Consulting Group”, “GE Healthcare”, “Oppenheimer”, “Cerberus”, “Sintana” va boshqa yirik korporatsiyalar rahbarlari bilan uchrashuvlar o‘tkazildi.

Bu safargi telefon orqali muloqotda shu oyda AQSHning yetakchi kompaniya va tashkilotlari bilan uzoq muddatli hamda barqaror sheriklik aloqalarini yo‘lga qo‘yish maqsadida qator ikki tomonlama uchrashuv va muzokaralar o‘tkazilishi ta’kidlandi.

Bundan tashqari, xavfsizlik sohasida, eng avvalo, terrorizm, ekstremizm va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish borasida samarali hamkorlik qilinmoqda.

Amerika tomoni O‘zbekistonning bu yo‘nalishlardagi muvaffaqiyatlarini doimiy ravishda ta’kidlab keladi. AQSH Davlat kotibi qaroriga ko‘ra, O‘zbekiston 2020-yildan boshlab Diniy erkinliklar sohasida xavotir uyg‘otadigan mamlakatlar ro‘yxatidan chiqarilgan. 2022-yilda “Cotton Campaign” nohukumat tashkiloti tashabbusi bilan kiritilgan paxta xaridi bo‘yicha taqiq olib tashlangan. O‘sha yilning o‘zida AQSH O‘zbekistonda bolalar mehnatidan foydalanishga qarshi sa’y-harakatlarning sezilarli darajada kuchayganini e’tirof etdi. O‘tgan yili AQSH Savdo vakolatxonasi intellektual mulk himoyasi borasidagi barqaror rivojlanishni hisobga olgan holda O‘zbekistonni kuzatuv ostidagi mamlakatlar ro‘yxatidan chiqardi. Biz qariyb chorak asr bu ro‘yxatda turgan edik.

Muqaddam erishilgan ikki tomonlama kelishuvlar doirasida 2025-yilning 30-aprel kuni Nyu-Yorkdan Toshkentga maxsus charter reys amalga oshirilib, unda O‘zbekiston va mintaqadagi boshqa davlatlarning AQSH hududida noqonuniy bo‘lib turgan va deportatsiya qilinadiganlar ro‘yxatiga kiritilgan 92 nafar fuqarosi vataniga qaytarildi.

Bo‘lib o‘tgan telefon orqali muloqot mavzularidan yana biri — madaniy-gumanitar yo‘nalish ham katta ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda Xalqaro ta’lim bo‘yicha Amerika kengashi (ACIE) faoliyati tiklandi. Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Education USA” mintaqaviy forumida AQSHning 65 ta oliy o‘quv yurti ishtirok etdi. O‘z navbatida, bir qator O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarining rektorlari va prorektorlari Xalqaro ta’lim administratorlarining Vashingtonda o‘tkazilgan konferensiyasida qatnashdi.

Davlat rahbarlarining muloqotida sport mavzusi ham e’tibordan chetda qolmadi. Kelgusi yili AQSHda bo‘lib o‘tadigan futbol bo‘yicha jahon chempionatida O‘zbekiston milliy terma jamoasi ilk bor ishtirok etishi mamnuniyat bilan ta’kidlandi. AQSH yetakchisi futbol terma jamoamizga chin dildan omad tiladi.

Telefon muloqoti chog‘ida davlat rahbarlari dolzarb xalqaro masalalar, jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari va AQSHning “C5+1” shaklidagi mintaqaviy hamkorligini chuqurlashtirish yuzasidan ham fikr almashdilar.

Davlatimiz rahbari Prezident Donald Trampni o‘zi uchun qulay muddatda O‘zbekistonga rasmiy tashrif bilan kelishga taklif qildi.

Amaliy hamkorlik bo‘yicha loyiha va dasturlarni ilgari surish maqsadida oliy darajadagi muloqotlarni davom ettirishga kelishib olindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va AQSH Prezidenti Donald Trampning telefon orqali muloqoti ochiq, konstruktiv va do‘stona ruhda o‘tdi, deya xulosa qiladi davlatimiz rahbari matbuot xizmati.

Shuni ta’kidlash lozimki, dunyoning eng yirik iqtisodiyotiga va keng diplomatik vakolatxonalar tarmog‘iga ega bo‘lgan Qo‘shma Shtatlar xalqaro munosabatlar va global savdo tizimida muhim rol o‘ynaydi. AQSH bilan savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsiyaviy va texnologik hamkorlikni rivojlantirish, ko‘p qirrali sheriklik va amaliy aloqalarni mustahkamlash O‘zbekiston milliy manfaatlariga xizmat qiladi.

Ayni paytda AQSH oliy rahbariyatining rasmiy Toshkent bilan aloqalarni mustahkamlashga bo‘lgan intilishi Yangi O‘zbekistonning jahon maydonidagi mavqei ortib borayotganidan, ko‘p vektorli tashqi siyosatimizning strategik maqsadlari ro‘yobga chiqayotganidan darak beradi.

O‘z muxbirimiz

DAVLAT XIZMATLARINI YANADA KO‘PAYTIRISH VA OSONLASHTIRISH BO‘YICHA TAKLIFLAR KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev adliya tizimida davlat xizmatlarini kengaytirish chora-tadbirlariga oid taqdimot bilan tanishdi.

So‘nggi sakkiz yilda adliya faoliyatini yangicha tashkil qilish uchun 70 ga yaqin qonun va qarorlar qabul qilindi. Tizimni aholiga yaqinlashtirish uchun 20 dan ortiq qo‘shimcha vakolatlar berildi. Hududlarda 202 ta Davlat xizmatlari markazi qurildi. Bugungi kunda 500 dan ortiq davlat xizmatlari “bir darcha” tamoyili asosida ko‘rsatilmoqda. Ilgari soatlab, kunlab kutilgan ma’lumotlar hozir 5-10 daqiqada olinyapti.

Lekin bu borada hali qilinadigan ishlar ko‘p. Davlat idoralari o‘rtasida elektron hamkorlik yetarli emasligi byurokratik to‘siqlarga sabab bo‘lmoqda. 200 dan ortiq davlat xizmati hamon eskicha usulda ko‘rsatilyapti. Chekka hududlarda aholining xizmatlardan mustaqil foydalanish imkoniyati cheklangan.

Shu bois, taqdimotda davlat xizmatlarini yanada ko‘paytirish va osonlashtirish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi.

Rejaga ko‘ra, kelgusi uch yilda davlat xizmatlari 900 taga yetkaziladi. Yiliga 80 ta xizmat “3 qadam” tamoyili asosida soddalashtiriladi. Aholi gavjum joylar va olis mahallalarda 1 ming 100 ta interaktiv kiosk o‘rnatiladi.

Fuqarolardan 30 turdagi hujjatlarni talab etish bekor qilinadi. Xususan, FHDYO organida nikohlanuvchi shaxslarning tibbiy ko‘rik natijalari, mudofaa bo‘limlarida harbiy xizmatga majburlarning turar joyi o‘zgarganligi haqidagi hujjat so‘ralmaydi, bu ma’lumotlar axborot tizimlari orqali onlayn olinadi.

Bugungi kunda notariuslar odamlarga 80 dan ortiq turdagi xizmat ko‘rsatyapti. Lekin onlayn xizmatlar ulushi juda kam — 11 foiz.

Davlatimiz rahbari raqamlashtirish orqali fuqarolarga qulayliklarni oshirish zarurligini ta’kidladi. 2025-2027-yillarda bosqichma-bosqich 20 ta notarial harakat onlayn rasmiylashtirishga o‘tkazilishi belgilandi.

Shuningdek, notarial xizmatlar ko‘rsatishda shaxsni tasdiqlovchi hujjatning aslini talab qilish bekor qilinib, buni “FACE-ID” orqali aniqlash tartibi yo‘lga qo‘yiladi.

Xadicha Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazida 64 turdagi ekspertiza xizmatlari o‘tkazilyapti. Lekin hududlarda buning yarmi ham yo‘q.

Shuning uchun ekspertiza bo‘yicha yangicha yondashuv qilish, hududiy ekspertiza markazlarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash, bu orqali ulardagi ekspertiza turlarini qo‘shimcha ravishda 15 tadan 25 tagacha ko‘paytirish vazifasi qo‘yildi.

Ekspertizaning yangi turlarini joriy etishda raqamli texnologiyalardan, inson omili yo‘q dasturlardan keng foydalaniladi. Surishtiruv, tergov organlari va ekspertiza muassasalari o‘rtasidagi hujjatlar almashinuvi to‘liq elektron shaklga o‘tkaziladi. Avtohalokat joyini 3D modellashtirish, videotexnika va fototexnika ekspertizasi kabi yangi xizmatlar tatbiq etiladi.

Nodavlat sud ekspertiza faoliyatini kengaytirish, sud eksperti sifatida alohida byuro ochgan holda mustaqil ish yuritishga ruxsat berish, O‘zbekiston Sud ekspertlari palatasini tashkil etish bo‘yicha takliflar ma’qullandi.

Odamlarning huquqiy savodxonligini oshirish ham muhim. Shu maqsadda “Aqlli targ‘ibot” asosida aholi va tadbirkorlarga yangi hujjatlar haqidagi ma’lumotlarni manzilli tarzda, elektron tizimlar orqali yetkazib berish yo‘lga qo‘yiladi. Qonunchilikni mutaxassislar ishtirokida sodda tilda sharhlab boruvchi “Adliya TV” internet sahifasi ishga tushiriladi.

Islohotlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarishda mutasaddilarning tashabbuskorligi, javobgarligi, mas’uliyati va vakolatlarini yanada oshirish zarurligi ta’kidlandi. Shu bois, o‘z sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vazirlik va idoralar huzuridagi organlarga ham idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish vakolati beriladi.

Bunday hujjatlarni qabul qilish, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi va muddatlari soddalashtiriladi. Natijada idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishning o‘rtacha muddati 2 barobarga qisqaradi.

Taqdimot yakunida mazkur takliflarni amalga oshirish bo‘yicha farmon va qarorlar imzolandi.

O‘zA

SUVERENITET — FAQATGINA XARITADAGI CHEGARALAR EMAS

MA’NAVIY YETUKLIK, HAMJIHATLIK, ICHKI QUVVATIMIZDIR

Bugun dunyo siyosiy o‘yinlar, iqtisodiy inqiroz va axborot hujumlari maydoniga aylangan bir davrda “suverenitet” so‘zi har doimgidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, bu har qanday mamlakat mustaqilligi va kelajagining asosidir. O‘zbekiston o‘z mustaqilligining 34 yilligini nishonlagan shu kunlarda, majoziy ma’noda, uni 34 yoshga to‘lgan, yoshlikdan ulg‘ayish sari qadam qo‘ygan insonga qiyoslash mumkin. Bu — o‘tgan umrni sarhisob qilish, oqni qoradan ajratib, xatolardan xulosa chiqarish, strategik qadamlarni aniq belgilash vaqti.

Xo‘sh, qaysi islohotlar O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatidagi pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qildi?

Iqtisodiy mustaqillik va yangilangan Mudofaa doktrinasi

Eng muhim omil bu — iqtisodiy mustaqillik. Mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, innovatsiyalar joriy etish, fermer va tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash — bu faqatgina YIM o‘sishi emas, balki o‘z xalqi farovonligini ta’minlash, ish o‘rinlari yaratish va odamlarni rozi qilish maqsadlarining asosi hamdir.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda samarasiz iqtisodiy modeldan voz kechib, uning o‘rniga raqobat, xususiy mulk va tashabbusni qo‘llab-quvvatlovchi, dunyoga ochiq bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan fundamental islohotlarni amalga oshirdi. Natijada mamlakat yalpi ichki mahsuloti 2017-yildagi 41 milliard dollardan 2024-yilda 115 milliard dollarga yetdi, eksport hajmi esa 13,9 milliard dollardan 27 milliard dollarga ko‘tarildi. Bu o‘zgarishlar iqtisodiy mustaqillikning mustahkam poydevorini yaratib, O‘zbekistonni dunyo hamjamiyatiga mintaqada barqaror rivojlanayotgan davlat sifatida tanitmoqda.

Mamlakatimizning barqaror rivojlanishi, xalqimizning tinch-osuda hayot kechirishida mudofaa tizimida olib borilgan islohotlar ahamiyati ham beqiyos. Uzoq yillar davomida Qurolli Kuchlarni harbiy va ikki maqsadda foydalaniladigan mahsulotlar bilan ta’minlash asosan import hisobidan amalga oshirilib kelinardi. Bu esa nafaqat Milliy armiyani qurol-aslaha, maxsus texnika va zarur jihozlar bilan o‘z vaqtida ta’minlashga to‘siq bo‘lgan, balki mamlakatning harbiy xavfsizligi masalasida xorijiy davlatlarga bog‘lanib qolish xavfini ham kuchaytirgan edi. Shuningdek, mudofaa ahamiyatiga ega bo‘lgan mavjud korxonalar og‘ir iqtisodiy ahvolga tushib qolgandi.

Davomi 3-betda

Tahlil

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va raqamlashtirish, transport va energetika tarmoqlarida barqaror infratuzilmani yaratish, “yashil” sanoat quvvatlarini ishga tushirish, “aqlli” qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga qaratilgani bilan ahamiyatli.

O‘ZBEKISTON – SHHT: “YASHIL IQTISODIYOT” VA ADOLATLI RAQOBAT MAYDONI

Prezidentimiz “Muqobil energetika sohasiga investitsiya va texnologiyalarni jalb etmasdan va “yashil” vodorodni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ymasdan turib, Markaziy Osiyo mintaqasini barqaror rivojlantirish mumkin emas. Biz qayta tiklanuvchi energiya resurslariga boy Markaziy Osiyo jahon energetika bozorlariga “yashil” energiya yetkazib beradigan yirik eksportchiga aylanishi uchun katta qadamlar tashlayapmiz. Markaziy Osiyoni “yashil iqtisodiyot” va “toza” energiya markazlaridan biriga aylantiramiz”, deya ta’kidladi.

O‘zbekiston “yashil” taraqqiyot yo‘lida ko‘p vektorli xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. “Yashil” taraqqiyot yo‘lidagi islohotlarni amalga oshirishda xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar muhim o‘rin tutadi. Jumladan, SHHTning xalqaro miqyosdagi nufuzi oshib, global muammolarni hal etishda yetakchi tashkilotlardan biriga aylanmoqda.

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda SHHTga a’zo mamlakatlar maydoni Yevroosiyo qit’asining 65 foizini tashkil etgan va 35 million kilometr kvadratga teng. Umumiy aholisi 3,5 milliard kishidan ortiq. Yalpi ichki mahsuloti hajmi esa qiyosiy narxlarda jahon yalpi ichki mahsulotining 33,7 foizini tashkil etadi.

SHHT faoliyati doirasida iqtisodiy hamkorlikning muvaffaqiyatli rivojlanayotgani kuzatilmoqda. Uning iqtisodiy hamkorligi tovarlar, kapitallar, xizmatlar va texnologiyalarning erkin harakatlanishi, savdo va investitsiyalar uchun qulay shart-sharoit yaratish, transport va kommunikatsiya sohasidagi infratuzilmadan samarali foydalanish, a’zo davlatlarning tranzit imkoniyatlarini yanada oshirish, energetika tizimini rivojlantirish kabi qator global maqsad va vazifalarni qamrab oladi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan, energetika sohasida hamkorlikni mustahkamlash va rivojlantirish SHHTga a’zo bo‘lishda jalb etuvchi omildir. Jumladan, SHHT Energetika klubi faoliyatida Osiyoning ko‘plab davlatlari ishtirok etishga qiziqish bildirmoqda.

Tashkilotga a’zo mamlakatlarning aksariyati iqlim o‘zgarishi, suv taqchilligi, energetika xavfsizligi, atrof-muhit ifloslanishi kabi muammolarga duch kelayotgan mamlakatlardir. Bu masalalar iqtisodiyot, ijtimoiy barqarorlik va mintaqa mamlakatlari xavfsizligiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, global iqlim o‘zgarishi sharoitida yanada dolzarb va salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda.

Birinchidan, insoniyat toza va xavfsiz ichimlik suvdan foydalanish bilan bog‘liq jiddiy muammoga duch kelmoqda. Aholi sonining ortib borishi, urbanizatsiya jarayoni jadallashuvi, iqlim o‘zgarishi va suv havzalarining ifloslanishi sharoitida toza ichimlik suvdan foydalanish imkoniyati cheklanib bormoqda. Xalqaro tashkilotlarning hisob-kitobiga ko‘ra, 2050-yilga qadar dunyoda suv iste’moli 1,5 barobar ortishi mumkin va ushbu holat suv resurslari taqchilligini yanada kuchaytiradi.

Ikkinchidan, energetika xavfsizligi SHHT doirasida muhokama qilinayotgan yana bir muhim yo‘nalish bo‘lib, energiya iste’molining ortishi va Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. A’zo mamlakatlar energiya resurslarini ishlab chiqaruvchi, tranzitini amalga oshiruvchi va iste’molchi davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikning amaliy jihatlariga alohida e’tibor qaratmoqda. SHHT a’zolari tomonidan 2030-yilga qadar qabul qilingan Energetika sohasida hamkorlik strategiyasida transchegaraviy infratuzilmalarni modernizatsiyalash va energetika xavfsizligini ta’minlash masalalariga ustuvor ahamiyat berilgan.

O‘zbekistonda energetika xavfsizligini “yashil iqtisodiyot” modeliga o‘tish orqali ta’minlash ustuvor vazifadir. Jumladan, Prezidentimiz to‘rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida so‘zlagan nutqida “Biz iqtisodiyotimizni barqaror energiya resurslari bilan ta’minlash uchun aynan “yashil” energetikani rivojlantirishga qattiq bel bog‘laganmiz. O‘tgan qisqa davrda bu sohaga qariyb 6 milliard dollar to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya kirib keldi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 59 milliarddan 82 milliard kilovatt-soatga yetdi. Keyingi besh yilda bu ko‘rsatkich 120 milliard kilovatt-soatdan oshib, “yashil” energiya ulushi 54 foizga yetadi”, deb ta’kidladi.

Uchinchidan, ilg‘or, resurs tejaydigan, energiya samarador, “yashil” texnologiyalarni rivojlantirish. Ushbu texnologiyalar atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazi miqdorini keskin qisqartirish, atrof-muhitga inson tomonidan yetkazilayotgan zararni kamaytirish, aholi turmush darajasi va farovonligini oshirish uchun xizmat qiladi.

SHHTning shu bilan bog‘liq tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi hamkorlik dasturlari amalga oshirilmoqda. Istiqbolda tiklanadigan energetika sohasiga yuqori texnologiyalarni joriy etish va investitsiyalarni rag‘batlantirishning kompleks rejasi ishlab chiqilishi kutilmoqda. Bundan tashqari, 2024-yilda SHHTda “Yashil belbog‘” dasturini 2024-2026-yillarda amaliyotga tatbiq etishning hamkorlikdagi rejasi ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda.

To‘rtinchidan, iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlari global muammo sifatida insoniyatning barqaror rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsata boshladi. Ushbu muammoni hal etish dunyo hamjamiyatidan BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi hadli konvensiyasi tamoyillariga asoslangan holda birgalikda harakat qilish zarurligini talab etadi. Buning uchun jamiyat va iqtisodiyotni barqaror inklyuziv rivojlanish yo‘liga o‘tkazish zarur.

SHHT doirasida muhokama etilgan masalalar orasida energetika mavzusiga ustuvor ahamiyat berilgani bejiz emas. Tashkilot tarkibida energiya resurslari yetkazib beruvchi, iste’mol qiluvchi va tranzit imkoniyati yuqori yirik mamlakatlar mavjud. Shu bois, Energetika sohasida hamkorlik konsepsiyasi qabul qilinishi va Energetika vazirliklarining majlisini tashkil etish ushbu yo‘nalishning ustuvor ahamiyatga ega ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

A’zo mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasida tabaqalanishi va energiya resurslari notekis taqsimlangani sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, faoliyatdagi energetika infratuzimasini modernizatsiyalash va yangilarini qurish uchun ilg‘or xorij tajribasidan foydalanish dolzarbligini yanada oshiradi.

SHHTning yirik a’zolaridan biri — Xitoy energetika sohasida “yashil” texnologiyalarga o‘tish borasida muvaffaqiyatli islohotlarni amalga oshirayotgani bilan ajralib turadi. Mamlakat milliy iqlim markazi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda o‘rnatilgan quyosh va shamol energetikasining quvvati 1,25 milliard kilovattga tenglashdi.

Prognozlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 2035-yilga qadar elektr energiyasi iste’moli hozirgiga nisbatan 1,7 barobar ortishi kutilmoqda. O‘sib borayotgan talabni qondirish uchun energetika sohasida uzoq muddatli rivojlantirish dasturlari qabul qilingan.

Xitoy O‘zbekistonning eng yirik tashqi savdo hamkorlaridan. Undan kelayotgan investitsiya asosan energetika, infrastruktura, transport va sanoat sohalariga qaratilgan. Misol uchun, yirik transport va logistika loyihalari tufayli birgina 2024-yilda ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo hajmi 12,4 milliard dollardan oshdi. Shu bilan birga, Xitoyning O‘zbekistondagi to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalari 10 milliard dollardan oshgan.

Bundan tashqari, Xitoy kompaniyalari mamlakatimizdagi “yashil” energetika dasturlariga faol jalb qilingan. Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand va Jizzax viloyatlarida quyosh elektr stansiyalari ishga tushirildi. Ular umumiy hisobda 1,5 gigavattdan ortiq toza energiya ishlab chiqarmoqda.

SHHT doirasida energetika bozori uchun raqobatbardosh narxlar taklif etilayotgani O‘zbekiston uchun ulkan imkoniyat yaratadi. Arzon “yashil” texnologiyalar va arzon narx siyosati tufayli mazkur nufuzli tashkilot a’zolari energetika sohasida O‘zbekistonning strategik sherigiga aylanishi mumkin.

Shuhrat HOJIBOQIYEV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
Abdurahim VAHOBOV
O‘zMU katta o‘qituvchisi

MAQSAD – EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALAR HISOBIGA ATMOSFERA MUSAFFOLIGINI TA’MINLASH

Mamlakatimizda tadbirkorlik muhiti yaxshilanishi, ishlab chiqaruvchilarga ko‘plab imtiyoz va imkoniyatlar taqdim etilishi natijasida ishbilarmonlar safi tobora kengaymoqda. Bir necha o‘n minglab ishchi-mutaxassis mehnat qilayotgan yirik korxonalar qatorida kichik va o‘rta biznes tuzilmalari ham ko‘payib boryapti. Ular faoliyat yuritayotgan soha va yo‘nalishlar ham yil sayin takomillashayotir.

Dolzarb mavzu

Issiqxona xo‘jaligi ana shunday o‘ziga xos tarmoqlardan. Ma’lumotlarga ko‘ra, bugun yurtimizda 5100 gektar issiqxona mavjud. So‘nggi yetti yilda ularda yetishtiriladigan mahsulot hajmi 110 ming tonnadan 546 ming tonnaga yetgan. Albatta, iqtisodiyotimizda bunday yangi tarmoqlar paydo bo‘lishi va ommalashishi, avvalo, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish, oziq-ovqat xavfsizligiga erishish, qolaversa, aholi bandligini ta’minlashda katta imkoniyat yaratmoqda.

Issiqxonalar faoliyati rivojlanishi natijasida hatto qish chillasida ham bozorlarimizga pomidor, bodring kabi yangi pishgan, sarxil poliz mahsulotlari, mevalar, foydali moddalarga boy ko‘katlar yetkazib berilmoqda. Qolaversa, butadan yangi uzilgan qulupnay, limon kabi yoz ne’matlarini tatish mumkin. Ammo ushbu jarayon tabiiy barqarorlikka uyg‘unmi degan savol haqida hamma ham o‘ylab ko‘ravermaydi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Toshkent shahri va viloyatida faoliyat yuritayotgan 7290 ta issiqxonaning 7138 tasi qishda mahsulot yetishtirish uchun ko‘mirdan foydalanmoqda.

Umuman, issiqxonalar bir mavsumda 235 ming tonna ko‘mir yoqishi natijasida havoga 21,1 ming tonna tashlanma chiqarilgan. Shuningdek, ushbu ishlab chiqarish tarmoqlarida havoga chiqarilayotgan zararli gazlarni tutib qoluvchi filtr mavjud emas.

Ko‘mir global isishga sabab bo‘layotgan eng katta ifloslantiruvchi manbalardan. Undan tarqaladigan zahar ko‘mirni qazib olish, tashish va foydalanishgacha bo‘lgan jarayonda atrof-muhit, havo, tuproq va suvni ifloslaydi. Bunday yoqilg‘idan foydalanish yurtimiz ekologiyasiga ham salbiy ta’sir o‘tkazadi. Zero, havoning ifloslanishi inson salomatligiga putur yetkazib, allergiya, nafas olish, yurak-qon tomir tizimi kasalliklarini keltirib chiqaruvchi sabablardan biridir. Shu bois, bunday holatlarning oldini olish, ishlab chiqarish tarmoqlarida tabiatga bezarar usullarni joriy etish ustuvor vazifa etib belgilangan.

2025-yil yurtimizda Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili deb e’lon qilindi. Shu yo‘nalishda davlat dasturi ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar davom ettirilib, yurtimizda kam uglerodli rivojlanish bo‘yicha uzoq muddatli strategiya va “yashil” moliyalashtirish milliy dasturi ishlab chiqildi. Investitsiya loyihalarida “yashil” komponentlar ko‘paytirilyapti. 2030-yilgacha zararli chiqindilarni 35 foiz qisqartirish va bu majburiyatni doimiy oshirib borish reja qilingan.

“Yashil makon” umummilliy dasturi doirasida shahar hududining kamida 30 foizini ko‘kalamzorlashtirish ko‘zda tutilgan. Qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalarni 100 foiz tatbiq etish bo‘yicha tizimli ishlar qilinyapti. Tez sur’atda o‘sib borayotgan iqtisodiyotning energetikaga talabini to‘liq qoplash uchun “yashil” quvvat manbalari jadal rivojlantirilyapti.

Xususan, o‘tgan 5 yilda energetika sohasiga qariyb 20 milliard dollarlik xorijiy investitsiya jalb qilindi. Natijada 9,6 gigavattli zamonaviy energiya quvvati, jumladan, 3,5 gigavattli 14 ta quyosh, shamol elektr stansiyalari va 300 megavattli 2 ta saqlash tizimi ishga tushirildi. 2030-yilga qadar mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya ulushini 54 foizga yetkazish reja qilingan.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, sanoat korxonalari, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarda resurs tejaydigan, tabiatga bezarar usullarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilyapti. Jumladan, issiqxona xo‘jaliklari faoliyatini yanada rivojlantirish ham muntazam e’tiborda.

Joriy yil 30-iyul kuni Prezidentimiz raisligida meva-sabzavot va oziq-ovqat eksportini ko‘paytirish masalalari muhokamasi bo‘yicha bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida bu boradagi ishlar ham atroflicha tahlil etilib, tegishli vazifalar belgilab berildi. Bundan buyon issiqxonalar toifasidan qat’i nazar, yer solig‘ini qishloq xo‘jaligi yerlari stavkasida to‘lashi, 2028-yilga qadar issiqxona ishchilari uchun ijtimoiy soliq stavkasi 12 foizdan 1 foizga tushirilishi muhim yangiliklardan bo‘ldi.

Videoselektorda, shuningdek, tadbirkorlar kredit yuki og‘irligi, o‘g‘it narxi qimmatligi, uzluksiz gaz ta’minoti yo‘qligi sababli qiyinchilikka uchrayotgani qayd etildi. Xususan, 600 gektardan ortiq maydondagi issiqxona faoliyatini to‘xtatgan, 128 gektari qarzdorlik sababli bank tasarrufiga o‘tgan.

Shu bois, issiqxona xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash choralari belgilandi. Endi ichki bozor bilan birga eksportga ham mahsulot yetkazish majburiyatini olgan, tabiiy gaz yordamida ishlaydigan issiqxonalar qishki mavsumda yonilg‘i bilan kafolatli hajmda ta’minlanadi. Ko‘mir yoki boshqa muqobil yoqilg‘iga o‘tgan hamda eksport majburiyatini olgan issiqxonalarga ham tabiiy gazga qaytish imkoni beriladi. Aylanma mablag‘ yetarli bo‘lishi uchun oldindan to‘lov oktabr-mart oylariga 50 foiz qilib belgilanadi. Bunda issiqxonalar gaz uzatish korxonalari bilan 1-oktabrgacha shartnoma imzolaydi.

Ko‘mir yoki boshqa muqobil isitish tizimiga o‘tgan issiqxonalarga ajratilgan kredit muddati uzaytiriladi. Issiqlik nasoslari texnologiyasi asosida issiqxona tashkil qilganlarga xarajatining 20 foizgacha qismi, bu ishlar kredit hisobidan bo‘lsa, kredit stavkasining 4 foizi qoplab beriladi.

Soliq qo‘mitasiga issiqxonalardan qisqartirilgan gaz qaysi sohalarga yo‘naltirilgani va ularning samaradorligini tahlil qilish vazifasi topshirildi. Agar u tarmoqda qo‘shilgan qiymat kam bo‘lsa, gaz issiqxonalarga yo‘naltiriladi.

Ayni paytda bu yo‘nalishda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash yuzasidan izchil ishlanyapti. Endi Toshkent shahri va viloyatida ko‘mirda ishlayotgan 7138 ta issiqxona tabiiy gazga o‘tkaziladi. Buning uchun talab etiladigan qo‘shimcha 114,4 million metr kub tabiiy gaz ichki iqtisod hisobidan qoplanadi. Hozirda mas’ul tuzilmalar tomonidan issiqxonalarni gaz tarmog‘iga ulash uchun texnik shartlar belgilanib, amaliy ishlar davom ettirilyapti.

— Korxonamiz tashkil topganiga 10 yildan oshdi, — deydi Qibray tumanidagi “Harakat agro servis” MCHJ rahbari Bahrom Risqulov. — 30 gektardan ziyod maydonda bog‘ va uzumzor barpo etganmiz. Jumladan, 2 gektarda issiqxona ham tashkil etilgan. Unda asosan pomidor yetishtirib, yurtimiz bozorlariga yetkazib beramiz, xorijga ham eksport qilamiz. Qishda issiqxonada asosan ko‘mir yoqilardi. So‘nggi yillarda yurtimizda chang-g‘uborli kunlar ko‘payib borayotgani, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolar biz, tadbirkorlarni ham tashvishga soldi, albatta. Shu bois, ishlab chiqarishda ekologiyaga bezarar usul va vositalarni joriy etish yuzasidan doimiy izlanishdamiz. Maqsadimiz — ekologik barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiy o‘sishning resurs tejamkorligiga asoslangan “yashil” rivojlanish modeliga o‘tish borasidagi chora-tadbirlarga o‘z hissamizni qo‘shish.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Муносабат

2025-yil 1-sentabrda “SHHT plyus” formatida Xitoyning Tyanszin shahrida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishdagi nutqida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bugungi notinch xalqaro sharoitda SHHT barqaror va adolatli jahon tartibotini ta’minlashning ishonchli tayanchiga aylanayotganini ta’kidladi. Nizo va mojarolar to‘lqinini to‘xtatish, ishonchni qayta tiklash, tinch-totuv hayotga intilish, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyil va me’yorlarini hurmat qilish muhimligi aytildi.

TINCHLIK, BAG‘RIKENGLIK VA UMUMINSONIY QADRIYATLARGA SODIQLIK YO‘LI

Shu o‘rinda davlatimiz rahbari G‘azo sektoridagi vaziyat tobora keskin tus olayotganini va gumanitar ahvol yomonlashayotganini ta’kidladi. Shavkat Mirziyoyev Falastin — Isroil muammosini “ikki xalq uchun ikki davlat” tamoyili asosida adolatli hal etishgina Yaqin Sharqdagi mojaroni to‘xtatishi mumkinligini yana bir bor qayd etdi.

So‘nggi yillarda Falastin, jumladan, G‘azo sektoridagi vaziyat jahon hamjamiyati diqqat markazida turibdi. Bugungi kunda Falastin aholisining dori-darmon, oziq-ovqat, toza suv va boshqa hayotiy resurslardan foydalanish imkoniyati cheklangan.

O‘zbekiston harbiy harakatlar boshlanganidan buyon ushbu mojaroni xalqaro huquq normalari asosida tinch yo‘l bilan tezroq hal etish tarafdori bo‘lib kelmoqda. Davlatimiz rahbari G‘azodagi murakkab gumanitar holatni yaxshilash, mintaqada tinchlik va barqarorlik qaror topishiga oid intilish va takliflarini Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti kabi yirik xalqaro tuzilmalar minbarlaridan turib ham bildirib o‘tgan.

O‘zbekiston tomoni mojaroni murosa va siyosiy-diplomatik vositalar bilan hal qilishga chaqiribgina qolmay, G‘azo sektorida mavjud og‘ir gumanitar holatni yaxshilash uchun amaliy va beg‘araz yordam ham ko‘rsatmoqda.

Jumladan, 2023-yilda Shavkat Mirziyoyev G‘azo sektori aholisiga baholi qudrat yordam ko‘rsatish uchun BMTning Yaqin Sharq agentligiga 1 million 500 ming dollar ajratish haqida qaror qabul qildi. 2024-yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan falastinlik 100 nafar yarador ayol va bola o‘z hamrohlari bilan birga O‘zbekistonga vaqtincha evakuatsiya qilindi. Ular reabilitatsiya markazlari va shifoxonalarga joylashtirildi.

O‘zbekiston bular bilan cheklanib qolmay, falastinlik mehmonlarning jamiyatimizga moslashishiga ko‘maklashish maqsadida qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rmoqda. Shu maqsadda Prezidentimiz 2025-yil 14-avgustda Falastinning O‘zbekistonga kelgan fuqarolariga doimiy g‘amxo‘rlik ko‘rsatish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi farmonni imzoladi.

Yordamni muvofiqlashtirish maqsadida falastinlik bemorlar va ularga hamrohlik qiluvchilarni O‘zbekistonda yashashga moslashtirish jarayoniga ko‘maklashish bo‘yicha respublika komissiyasi tuzildi. Komissiya ishchi organi etib Ijtimoiy himoya milliy agentligi belgilandi. Joylarda mehmonlar bilan “mahalla yettiligi” va “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari bevosita ishlaydi.

Har bir oila uchun bir oy muddatda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek, ularning bo‘linmalari tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan ijtimoiy xizmatlar va yordam ko‘rsatishning individual rejasi ishlab chiqiladi.

Bundan tashqari, Prezidentimiz mamlakatimizda Falastin fuqarolarining yashash sharoiti va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun Ijtimoiy himoya milliy agentligida maxsus jamg‘arma tashkil etilishini ma’qulladi. Jamg‘arma mablag‘lari mehmonlarga sharoit yaratish va zarur xizmatlar ko‘rsatish, xarajatlarini qoplash, moddiy yordam ko‘rsatish va boshqa qator qo‘llab-quvvatlash tadbirlariga yo‘naltiriladi.

> **Davlatimiz rahbarining G‘azodagi gumanitar vaziyatni barqarorlashtirish, mojaroni tez fursatlarda murosa yo‘li bilan hal etishga qaratilgan chaqiruvlari, shuningdek, Falastin aholisiga ko‘rsatayotgan yuksak ehtiromi va amaliy harakatlari olijanob o‘zbek xalqining bag‘rikenglik, insonparvarlik qadriyatlarini yaqqol namoyon etib turibdi.**

G‘azoda murakkab ahvolga tushib qolgan aholiga har tomonlama beg‘araz gumanitar ko‘mak ko‘rsatilayotgani yurtimizning umuminsoniy qadriyatlarga hurmati, millatlararo va dinlararo o‘zaro totuvlik tamoyillariga, qo‘shni mamlakatlar bilan ahil qo‘shnichilik siyosatini yuritishga sodiqligini yana bir bor tasdiqladi.

Prezidentimizning Yaqin Sharqdagi mojaroni xalqaro huquq me’yorlari asosida tinch yo‘l bilan hal etishga qaratilgan bunday jadal amaliy harakatlari tub zamirida tinchliksevar pragmatik tashqi siyosat yotibdi. Tinchlik va barqarorlik hukm surgan mintaqada izchil taraqqiyot, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish va ertangi kunga ishonch bo‘ladi.

> **Davlatimiz rahbarining G‘azodagi gumanitar vaziyatni barqarorlashtirish, mojaroni tez fursatlarda murosa yo‘li bilan hal etishga qaratilgan chaqiruvlari, shuningdek, Falastin aholisiga ko‘rsatayotgan yuksak ehtiromi va amaliy harakatlari olijanob o‘zbek xalqining bag‘rikenglik, insonparvarlik qadriyatlarini yaqqol namoyon etib turibdi.**

Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimizning SHHT minbaridan turib, tinchlik va osoyishtalik ertangi kun taraqqiyotining asosiy kaliti ekani, bu o‘rinda turli nizo va mojarolar to‘lqinini uzish, G‘azodagi vaziyatni tinch yo‘l bilan hal etishga qaratilgan murojaati tinchliksevar o‘zbek xalqining xohish-irodasini, maqsad va istaklarini aks ettirdi. Bu o‘rinda davlatimiz rahbarining jahon hamjamiyatining mojaroni hal qilishda yanada faol harakatlarni amalga oshirishga oid chaqiruvi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishda xalqaro xavfsizlikni ta’minlash masalalariga e’tiborni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Sarvar KAMOLOV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti bosh ilmiy xodimi

www.yuz.uz — yuz.uznews — yuz_official — yuz.uz_news — yuz

Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!

SUVERENITET – FAQATGINA XARITADAGI CHEGARALAR EMAS

MA’NAVIY YETUKLIK, HAMJIHATLIK, ICHKI QUVVATIMIZDIR

Bobur BEKMURODOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo‘mita raisi,
“Yuksalish” harakati raisi

Boshlanishi 1-betda

So‘nggi yillarda esa muhim islohotlar amalga oshirildi. Avvalo, O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Mudofaa doktrinasi qabul qilindi va birinchi bor ochiq e’lon qilindi. Shuningdek, Mudofaa sanoati agentligi tashkil etildi. Agentlik mudofaa korxonalarini zamonaviy, energiya tejovchi, raqamli dasturlashtirilgan boshqaruv tizimlari va uskunalar bilan jihozlashni bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘ydi.

Harbiy-texnik hamkorlik sohasida ham keng imkoniyatlar yaratildi: dunyoning 30 dan ortiq rivojlangan davlati va 80 ga yaqin kompaniyasi bilan aloqalar o‘rnatildi, 10 ta davlat bilan hukumatlararo komissiyalar tuzildi, shuningdek, 10 dan ziyod mamlakat bilan xalqaro bitim va kelishuvlar imzolandi. Zamonaviy qurol-aslaha va jangovar texnikalar xaridi tizimli yo‘lga qo‘yildi.

Ushbu islohotlar O‘zbekistonning harbiy xavfsizligi va mustaqilligi kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasi — tashqi siyosatimizning ustuvor yo‘nalishi

Tashqi siyosat borasida ham misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar amalga oshirildi. Avvalgi davrlarda qo‘shni mamlakatlar bilan siyosiy aloqalar cheklangan, ikki tomonlama savdo aylanmasi mavjud salohiyatga javob bermaydigan darajada past edi. Chegara, suv-energetika, transport va boshqa muammolar Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikni rivojlantirishga jiddiy to‘siq bo‘lgan. Shuningdek, yetakchi G‘arb davlatlari tomonidan O‘zbekistonga turli iqtisodiy cheklovlar qo‘llanilgan edi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida Markaziy Osiyo mintaqasi belgilandi. Qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik va hamkorlikni mustahkamlash, mavjud muammolarni hal etish hamda xalqaro maydonda hamjihatlik qilish asosiy maqsad sifatida belgilab olindi. Natijada savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalar sezilarli darajada kengaydi.

O‘zbekistonning qator davlatlar — Xitoy, AQSH, Turkiya, Vengriya, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Hindiston va Arab mamlakatlari bilan munosabatlari strategik hamkorlik darajasiga ko‘tarildi. Qo‘shni davlatlar bilan suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha ikki tomonlama komissiyalar tashkil etildi. Shu bilan birga, Orolbo‘yi mintaqasi uchun BMT doirasida Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklik trast jamg‘armasi yo‘lga qo‘yildi.

Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish yo‘lida izchil ishlar amalga oshirildi, Yevropa Ittifoqining “GSP+” benefitsiar maqomiga erishildi. Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik deyarli barcha sohalarni qamrab olgan holda muntazam ravishda qo‘shma organlar yig‘ilishlari o‘tkazib kelinmoqda. Turkiya bilan munosabatlar strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilib, oliy darajadagi O‘zbekiston — Turkiya strategik hamkorlik kengashi tashkil etildi.

O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, MDH, SHHT, Turkiy davlatlar tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti hamda Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengash kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan aloqalarini mustahkamladi. 2019-yilda O‘zbekiston Turkiy davlatlar tashkilotiga to‘laqonli a’zo bo‘ldi.

Shuningdek, mamlakat BMT doirasidagi tashabbuslarda faol ishtirok eta boshladi. 2020-yil 13-oktabrda BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida O‘zbekiston tarixda ilk bor BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi a’zoligiga saylandi. Bu o‘rinda mamlakat 2021-2023-yillarda uch yillik muddatga faoliyat yuritish huquqini qo‘lga kiritdi.

Hech qachon demokratiyadan voz kechmaymiz

Yana bir muhim omil — bu huquqiy islohot. Mustaqil sud tizimi, qarorlar qabul qilish shaffofligi, korrupsiyaga qarshi kurash — mamlakatni ichkaridan qudratli qilish bilan birga, tashqarida ham unga nisbatan hurmat oshishiga yordam beradi.

2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning qabul qilinishi bu jarayonda muhim va kerakli qadam bo‘ldi. Konstitutsiyaga kiritilgan yangi normalar barcha sohalarni taraqqiy ettirish, shu jumladan, davlat hokimiyatining yanada samarali tashkil qilinishiga yordam beradi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 7-moddasida “Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir”, degan norma belgilab qo‘yilgan. Bu norma timsolida O‘zbekiston Respublikasida jahon miqyosida umume’tirof etilgan xalq hokimiyatchiligi prinsipi, ya’ni xalq suverenitetning tashuvchisi va davlat hokimiyatining yagona manbai ekanini anglatuvchi tamoyil mustahkamlandi.

O‘zbekiston — huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi alohida qayd etildi. Yangi tahrirdagi Bosh qonunimizning 154-moddasi bilan 1-moddadagi qoidalarni qayta ko‘rib chiqish mumkin emasligi belgilandi. Boshqacha aytganda, bu norma — O‘zbekiston hech qachon demokratiyadan voz kechmasligi, huquqiy davlatchilikka sodiqligi, dunyoviylikka asoslanishini nazarda tutadi.

Boshqaruvda nomarkazlashtirish siyosatiga alohida e’tibor qaratildi. Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyati ustidan xalq deputatlari Kengashlarining nazorat funksiyalarini kengaytirish maqsadida ularga o‘ndan ortiq qo‘shimcha vakolat berildi. Xususan, prokuratura, adliya, ichki ishlar, moliya, soliq, ekologiya va sog‘liqni saqlash organlari rahbarlarining hisobdorligi belgilab qo‘yildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilib, u fuqarolardan kelib tushgan murojaatlar asosida korrupsiyaga oid ishlar bo‘yicha tekshiruvlar o‘tkazish vakolatiga ega bo‘ldi. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning javobgarligi va ochiqligini ta’minlash uchun “Ochiqlik indeksi” joriy etildi. Barcha davlat organlariga 40 ta muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni ochiq e’lon qilish majburiyati yuklandi.

Shuningdek, mamlakatimizda ochiq ma’lumotlar portali ishga tushirildi. Har bir davlat idorasining matbuot xizmati faoliyati yo‘lga qo‘yildi va ularning rahbarlari maslahatchi maqomiga ega bo‘ldi.

Ochiqlik siyosati doirasida xalqaro reytinglardagi o‘rnimiz ham yaxshilanib bormoqda.

Masalan, O‘zbekiston “Transparency International”ning Korrupsiyaga ta’sirchanlik indeksida 2018-yilda 158-o‘rinda bo‘lgan

bo‘lsa, 2024-yilda 121-o‘ringa ko‘tarildi. 2023-yilda ODIN ochiq ma’lumotlar reytingida O‘zbekiston 195 mamlakat orasida 30-o‘rinda qayd etildi.

Sudyalarni tayinlash va ularning vakolatlarini tugatish mexanizmi qayta ko‘rib chiqildi. Bu jarayonlarni xolislik asosida amalga oshirish maqsadida Sudyalar oliy kengashi mustaqil institut sifatida tashkil etildi va sudyalarni tayinlashda ularning vakolat muddati va professional etika qoidalari takomillashtirildi.

Sud faoliyatiga davlat idoralari, mansabdor shaxslar yoki boshqa guruhlar tomonidan aralashuvning oldini olishga qaratilgan qonuniy normalar qabul qilindi. Xususan, sud qarorlariga bosim o‘tkazishga qarshi javobgarlik kuchaytirildi. Buning natijasida 2017-2024-yillarda 6679 nafar shaxs oqlandi (1991-2016-yillarda bu ko‘rsatkich 137 tani tashkil qilgandi).

Demokratiyaga asoslangan, adolatli va shaffof davlat boshqaruvi

Bu islohotlar O‘zbekistonni demokratiyaga asoslangan, adolatli va shaffof davlat boshqaruvi sari yetaklamoqda.

Chunonchi hukumat va jamiyat o‘rtasidagi muloqot, fuqarolarning boshqaruvdagi real ishtiroki, tashabbuslarning pastdan qo‘llab-quvvatlanishi mustaqillik poydevoridir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 120-moddasida xalq deputatlari Kengashiga uning deputatlari orasidan qonunga muvofiq saylanadigan rais boshchilik qilishi, viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari Kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emasligi mustahkamlab qo‘yilgan.

Konstitutsiyamizning ushbu moddasiga ko‘ra, xalq deputatlari Kengashlarining vakolatlari muddati besh yil bo‘lib, ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ayni bir viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashining raisi etib saylanishi mumkin emas.

Mahalliy Kengashlar va hokimlarning vakolatlari alohida-alohida qilib belgilanishi ushbu organlar mas’uliyati va javobgarligini oshiradi, vazifalar takrorlanishining oldini oladi. Hokimlarning mahalliy Kengashlarga raislik qilish amaliyotidan voz kechilgani mahalliy vakillik organlari xalq nomidan muhim siyosiy qarorlarni mustaqil qabul qilishiga, hokimliklar faoliyati ustidan ta’sirchan kengash va deputatlik nazorati o‘rnatilishiga xizmat qiladi.

Mustaqil suveren davlat — shaxsiy dunyoqarash va o‘z “meni”ga ega jamiyat bilan quriladi. Aynan shuning uchun hukumat ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga katta e’tibor qaratdi. Maktabgacha ta’lim tizimi yangi yondashuv asosida shakllantirildi. Xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi va shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo‘yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari 4K modeli asosida yangidan tayyorlandi.

Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yildi.

Ta’lim — kelajak sarmoyasi

Mamlakatimizning eng bebaho strategik resursi — bu yoshlar. Bugun barcha jabhada kechayotgan o‘zgarishlar, islohotlardan kutilayotgan natijalar, taqdirimiz, kelajagimiz, so‘zsiz, ularning qo‘lida. Binobarin, yoshlarga oid davlat siyosati yangi O‘zbekistonda mazmun-mohiyati va qamrovi jihatidan butunlay yangi bosqichga chiqayotgani bejiz emas.

Yangi oliygohlar ochilib, qamrov ancha kengaydi. Ta’lim jarayonlari sifat jihatidan yaxshilanmoqda. Oliy o‘quv yurtlarida ilmiy salohiyat 41 foizdan 45 foizga oshgani ham diqqatga molik.

Tan olish kerak, mustaqillikning ilk yillarida O‘zbekiston ta’lim tizimi ko‘plab muammolarga duch keldi. Jumladan, oliy ta’lim qamrovining pastligi, o‘qitishning eskicha yondashuvlarga asoslangani, infratuzilmaning zamonaviy talablarga javob bermasligi va iqtisodiy cheklovlar soha ravnaqiga to‘sqinlik qildi. Ta’lim tizimidagi muammolar yoshlarning imkoniyatlarini cheklash bilan bir qatorda, mamlakatning umumiy rivojlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Ilgari oliygohga bitta o‘rin uchun o‘n nafardan ortiq abituriyent da’vogarlik qilgan bo‘lsa, hozir universitetlar soni uch barobarga ko‘paygani tufayli oliy ta’limga kirish imkoniyati oshdi.

Yosh olimlar va talabalarimizning muvaffaqiyati ham ilhom bag‘ishlaydi. Bugungi kunda 1,5 mingdan ortiq yigit-qizlarimiz yetakchi xalqaro universitetlarda tahsil olmoqda. Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Istiqbolli kadrlarni tayyorlash bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi etib qayta tashkil etildi. Agar davlat 25 yil davomida 800 nafar yoshni xorijga o‘qishga yuborgan bo‘lsa, oxirgi 7-yilda “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali 2,3 ming nafar yoshlarimiz chet elda tahsil oldi.

“Ta’lim — kelajak sarmoyasi” degan ezgu g‘oya jamiyatimizda katta harakatga aylanmoqda. “El-yurt umidi” jamg‘armasi faoliyati takomillashtirilishi natijasida top-300 talik oliygohga kirganlar uchun o‘qish va yashash xarajatini qoplash tizimi yangi tartibda ishlay boshladi. Ilmiy darajaga ega yosh olimlar soni 4 ming nafardan oshdi.

2020-yildan boshlab mamlakatdagi barcha oliy o‘quv yurtlarida Yevropa standartlari asosida kredit-modul tizimi joriy etildi. Qo‘shma ta’lim dasturlari akademik almashinuv orqali talabalarga ikki davlat universitetlari diplomlarini olish imkoniyatini yaratdi.

O‘tgan yillarda oliy ta’lim muassasalariga bosqichli ravishda akademik va moliyaviy mustaqillikning berilishi yana bir yangi qadam bo‘ldi. Bu OTMga o‘quv rejalarini mustaqil tasdiqlash, yangi ta’lim yo‘nalishlari ochish va akademik mobillikni amalga oshirish imkoniyatini berdi. Natijada davlat ma’muriy boshqaruvi sezilarli darajada optimallashtirildi va OTMdagi innovatsion jarayonlar tezlashdi. Xalqimizning ko‘p yillik og‘rig‘i, dardi bo‘lgan paxta terimiga majburiy jalb qilish amaliyotiga barham berildi.

Bugun biz taraqqiyotimizning navbatdagi tarixiy bosqichi — ijtimoiy bog‘lanish jarayoniga guvoh bo‘lyapmiz.

Tarqoq, o‘z nafini o‘ylaydigan, shaxsiy manfaatlarni ustuvor qo‘yadigan kishilar jamoasidan — yakdil va qudratli jamiyatga aylanayotganimizni kuzatish mumkin. Bu yo‘ldagi eng katta kuch — ijtimoiy harakatlardir.

Qisqa davr ichida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan qator tashabbuslar ijtimoiy harakatlarga aylandi. “Besh tashabbus”, “Zakovat” intellektual o‘yini, “Yashil makon” kabi loyihalar institutsional muvaffaqiyatli harakatlar sifatida namoyon bo‘lgan bo‘lsa, yashil taraqqiyotga intilish, milliy qadriyatlar va tarixni ulug‘lash, yoshlar ta’limi, xorijiy tillarni o‘rganish, mahallalardagi chinakam insonparvarlik ruhi va faol tadbirkorlik harakatlari jamiyatning yaratilgan sharoitlarga javobi va islohotlardan ruhlanishi natijasida vujudga kelgan katta ichki kuchga ega bo‘lgan harakatlardir.

Mana shu ijtimoiy harakatlar ko‘lamining kengayishi mustaqillikni mustahkamlovchi eng muhim omillar sanaladi.

Jamiyatimizda kuzatilayotgan yana bir ijobiy tendensiya — qonunlardan qo‘rqishdan ularni hurmat qilishga o‘tilayotganidir. Bu — jamiyat taraqqiyotining oliy nuqtasi bo‘lib, uyg‘oq, qonunga sadoqatli va o‘z taqdirini o‘zi belgilaydigan millat sifatida shakllanayotganimizdan dalolat beradi.

Bu yo‘ldagi birdamligimiz, ijtimoiy kuchimiz va fidoyiligimiz — kelajak avlodga qoldiradigan eng katta merosimiz bo‘ladi!

Suverenitet — bu shunchaki xaritadagi chegaralar emas, balki odamlarning ma’naviy yetukligi, hamjihatligi, ichki kuchidir.

O‘ttiz yildan oshiq vaqt davomida biz “mustaqil” degan nomni oqlashga va suveren davlat sifatida oyoqda mustahkam turishga harakat qildik. O‘z vaqtida ko‘rsatilgan qat’iyat va siyosiy iroda bugun o‘zining ijobiy natijasini bermoqda: O‘zbekistonni butun dunyo taniydi va tan oladi. Oldinda esa uni yangi islohotlar va yangi cho‘qqilar sari yo‘l kutmoqda.

Alloh taologa beadad shukronalar bo‘lsinki, bugun yurtimizning shahar va qishloqlarini eng ulug‘, eng aziz ayyom — mustaqilligimizning 34 yilligi munosabati bilan o‘tkazilayotgan bayram tantanalari shodiyonaga to‘ldirmoqda. Mustaqillik bayrami — har birimiz uchun g‘oyat qadrli va ulug‘ ayyom. Zero, aynan istiqlol orqali biz o‘zligimizni, milliy qadr-qimmatimizni, insoniy haq-huquqlarimizni anglab yetdik.

TARIXI BUYUK XALQ ULUG‘VOR ISHLARGA QODIR

Ushbu shodiyona kunlarda tarixiy ahamiyatga molik yana bir muhim voqelik — Islom sivilizatsiyasi markazi qurilishi yakunlandi, oxirgi pardozlash ishlari ham poyoniga yetib qoldi. Mazkur ziyo maskani buyuk allomalarimizning jahon tamaddduniga qo‘shgan ulkan hissasini namoyon etuvchi, yosh avlodni ilm-ma’rifat ruhida tarbiyalovchi markaz sifatida O‘zbekistonning yangi tarixida tom ma’noda **Uchinchi Renessans poydevori**ga aylanajak.

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR,
O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

Inson qadri — yuksak tamoyil sifatida

Yurtimizdagi har bir islohot markazida inson qadri, uning sha’ni va farovon hayotini ta’minlash kabi tamoyillar turibdi. Bu, o‘z navbatida, milliy qadriyatlarimiz va islom dini ta’limotlari bilan uyg‘un holda yurtimizning ma’naviy taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

Haq taolo Qur’oni karimda marhamat qiladi: **“Alloh yaxshilik qiluvchi bandalarini yaxshi ko‘radi”** (Moida surasi). Shu ma’noda, davlatimiz rahbarining **“Odamlarni hayotdan rozi qilish — asosiy mezon”,** degan da’vati, ta’bir joiz bo‘lsa, qat’iy talabi asosida amalga oshirilayotgan ezgu ishlar xalq manfaatlari yo‘lida xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillarda diniy-ma’rifiy sohadagi keng ko‘lamli islohotlar yurtimizda

inson qadri ulug‘lanayotganining yaqqol isbotidir. Masalan, diniy soha vakillari, ulamolar, imom-domlalarning mehnati munosib rag‘batlantirilmoqda. Bu e’tibor yuksak darajadagi davlat mukofotlari bilan taqdirlashda ham o‘z ifodasini topmoqda.

“Imom Buxoriy” ordeni — yuksak e’tibor ramzi

2025-yil 23-avgust kuni biz uchun tarixiy sana bo‘ldi. O‘zbekiston Prezidentining farmoniga asosan, mustaqilligimizning 34 yilligi munosabati bilan kamina “Oliy Darajali “Imom Buxoriy” ordeni bilan taqdirlandim. Shuningdek, yurtimizdagi bir guruh faol ulamolar “Imom Buxoriy” ordeniga sazovor bo‘ldi. Bu yurtimizda din peshvolariga, ilm ahliga yuksak e’tibor va hurmat ifodasidir.

> **Bu mukofotni Prezidentimiz qo‘lidan qabul qilish shaxsan men uchun hayotimdagi eng hayajonli voqea bo‘ldi. Zero, mazkur ordenlar nafaqat bizga, balki yurtimizdagi barcha diniy soha vakillari mehnatiga berilgan yuksak bahodir.**

Yangi O‘zbekistondagi islohotlarda ilm va ma’rifat asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ulamolarga ko‘rsatilayotgan e’tibor yanada oshdi. Zero, mo‘tabar manbalarda ham ilm egalari ulug‘langan. Jumladan, Qur’oni karimda bunday zikr qilinadi: **“Alloh sizlardan imon keltirgan va ilm berilgan zotlarni** (baland) **darajalarga ko‘taradi”** (Mujodala surasi, 11-oyat).

Payg‘ambarimiz (s.a.v.) hadislarida: “Ulamolar payg‘ambarlarning meros-xo‘rlaridir”, deya olimlarning maqomi va fazli alohida ta’kidlangan.

Buyuk ajdodlar merosiga munosib hurmat

Yurtimizda islom madaniyati, islomshunoslik va allomalar merosiga munosabat yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, Imom Buxoriy majmuasidagi obodonlashtirish va rekonstruksiya ishlari nafaqat yurtimiz, balki butun islom olami e’tiborini tortmoqda.

Prezidentimiz ushbu ziyoratgohda amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishar ekan, majmua nafaqat ziyorat, balki ilm-ma’rifat, tarbiya va ibrat maskaniga aylanishi lozimligini alohida ta’kidladi. Darhaqiqat, majmuadagi muzeyda Imom Buxoriy hazratlarining hayot yo‘li, safarlari va ilm borasidagi izlanishlari haqida ma’lumotlar katta ma’naviy tarbiya manbaidir.

Diniy-ma’rifiy sohadagi amaliy ishlar

Keyingi yillarda diniy-ma’rifiy sohada amalga oshirilgan quyidagi ishlar tahsinga sazovordir:

— Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan Islom sivilizatsiyasi markazining qurilishi;

— O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy va Bahouddin Naqshband nomlaridagi ilmiy markazlar faoliyati yo‘lga qo‘yilishi;

— **100 dan** ortiq yangi masjid, **3 ta** madrasa, **2 ta** oliy diniy ta’lim muassasasi hamda **Qur’on kurslari** faoliyati yo‘lga qo‘yilishi;

— Haj ziyoratchilari uchun kvotalarning bir necha barobar oshirilishi hamda umraga boruvchilar uchun kvotalar batamom olib tashlangani.

Bu kabi keng qamrovli islohotlar tufayli yaqin istiqbolda yurtimizdan yana Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ibn Sino, Xorazmiy, Beruniy kabi ulug‘ allomalar yetishib chiqishiga ishonchimiz komil.

Xulosa o‘rnida biz, ulamolar islom ma’rifatini to‘g‘ri anglatish, yurtimiz tinchligi, xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyoti, yoshlarimizning ta’lim-tarbiyasi, turli noto‘g‘ri yo‘llarga kirib ketmasligi uchun yanada qattiqroq mehnat qilishimiz kerakligini ta’kidlamoqchiman.

Ilohim, mustaqilligimiz abadiy bo‘lsin, yurtimiz yanada ravnaq topsin. Yaratgan Egam yangi O‘zbekistondagi barcha ezgu ishlarni bardavom qilsin!

Bugunning gapi

Odatda yilning qaysidir vaqti yoki muayyan mavsumda aholining elektr energiyasiga talabi doimgiga nisbatan ortishiga o‘rganib qolganmiz. Lekin keyingi yillarda bu tendensiya o‘zgardi. Endi ushbu talab mavsum tanlamayapti. Yilning qaysi davri bo‘lmasin, odamlarning elektr energiya iste’moli muntazam oshib bormoqda. Bu yurtimizdagi rivojlanish, aholi farovonligi o‘sib borishi, iqtisodiyot tarmoqlari ravnaqi kabi ijobiy omillar bilan bog‘liq. Ammo masalaning boshqa tomoni shundaki, talab ortishi energetika sohasi vakillari oldiga aholini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlash vazifasini qo‘yadi.

BARQAROR ENERGIYA TA’MINOTI

KELGUSI REJALAR QANDAY?

Feruz QURBONOV,
“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ boshqaruvi raisi o‘rinbosari

Buning uchun tizimga katta mablag‘ ajratilib, bir necha o‘n yillar davomida qilinmagan islohotlar amalga oshirilyapti. Yangi tarmoqlar tortilib, chekka hududlargacha elektr toki kirib bormoqda. Ammo bu endi tarmoqda hech qanday uzilish, avariya holati bo‘lmaydi degani emas. Turli ob-havo sharoitida bunday holatlar kuzatilishi tabiiy. Tizimdagi eng katta o‘zgarishlardan yana biri ana shunday holatlarni tezkor bartaraf etishga erishilayotgani, tarmoqdagi uzilishlar davomiyligi bir necha barobar qisqarganida.

Bu yil ham yoz odatdagidan issiq keldi. Ayniqsa, iyul oxirlarida kuzatilgan yuqori harorat tufayli poytaxtimizning ayrim tumanlarida elektr tokida uzilishlar bo‘lgani yurtdoshlarimizning haqli e’tirozlariga sabab bo‘ldi. Shunday vaqtda tizimda hali qilinadigan ishlar ko‘pligi ko‘rinib qoladi.

Gap shundaki, hududlar, ayniqsa, Toshkent shahrida aholi soni ham, bunyodkorlik ko‘lami ham oshib boryapti. O‘tgan bir yilda 12 mingta yangi quvvat, savdo va servis majmualari ishga tushirildi. Yil boshidan beri poytaxtimizda elektr iste’molchilari yana 40 mingtaga ko‘paygan, talab 6 foiz oshgan. Odamlarning turmush tarzi yaxshilanib, maishiy texnikalardan foydalanishi ko‘paygan. Natijada Toshkent shahridagi 46 ta podstansiya va 207 ta transformator ortiqcha yuklama bilan ishlayapti. Bularning barchasi sohada modernizatsiya jarayonini izchil davom ettirish, yangi quvvatlarni ishga tushirishni talab qiladi.

Oxirgi ikki yilda poytaxtda elektr ta’minotini yaxshilash uchun 2 trillion 800 milliard so‘m yo‘naltirilgan. Shular hisobidan 36 ta podstansiya, 665 ta transformator, 2000 kilometrdan ziyod tarmoq yangilandi. Joriy yilda ham belgilangan rejalar bisyor. Shu yil 8-avgust kuni davlatimiz rahbariga Toshkent shahrida energetika tizimi barqarorligini ta’minlash chora-tadbirlari bo‘yicha axborot berildi. Taqdimotda har bir tuman va mahallalar kesimidagi rejalar bayon qilindi. Unda ko‘rsatilishicha, bu yil birinchi bosqichda 374 kilometr tarmoq, 11 ta podstansiya, 62 ta transformatorni yangilash ko‘zda tutilgan. Kelasi yili yana 788 kilometr tarmoq, 35 ta podstansiya va 145 ta transformator modernizatsiya qilinadi. Jumladan, mahallalardagi transformator va tarmoqlar ta’mirlanib, yangilari o‘rnatiladi.

Har bir loyiha yangi tarmoqlar degani

Bunday sa’y-harakatlar yurtimizning barcha hududida faol amalga oshirilyapti. Shuning hisobiga aholini elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlash ko‘rsatkichi oshib boryapti. Bundan 7-8 yil oldingi holat bilan hozirgi vaziyatni solishtirgan har qanday inson buni yaqqol sezadi. Chunki soha vakillarining asosiy maqsadi aynan elektr ta’minoti uzluksizligini ta’minlashga qaratilgan. Bu bevosita aholi turmush tarzi, sanoat korxonalari rivoji bilan bog‘liq masala ekani mas’uliyatni yanada oshiradi.

Elektr energiyasi aholiga elektr uzatish tarmoqlari hamda podstansiyalar orqali yetkaziladi. Shuning uchun aynan ularning soz holatda ishlashi asosiy masaladir. Bugun “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati tarkibidagi 14 ta hududiy filial ixtiyorida 35-500 kilovattli 36 ming 800 kilometr elektr uzatish tarmoqlari hamda 1583 ta podstansiya mavjud. Joriy yilda elektr uzatish tarmoqlari orqali 74,6 milliard kilovatt-soat elektr energiyasini yetkazish rejalashtirilgan. Podstansiyalarning umumiy quvvati esa 51 ming 630 megavattga teng.

Aholiga elektr energiyasini uzluksiz yetkazib berish uchun, avvalo, magistral elektr tarmoqlari hamda podstansiyalarni muntazam modernizatsiyalash va rekonstruksiya qilish talab etiladi. Bu odatda investitsiya loyihalari hisobidan amalga oshiriladi. Aksariyat yirik loyihalarga xalqaro moliya tashkilotlari mablag‘ ajratmoqda. Xususan, xalqaro moliya institutlaridan jalb qilingan kreditni o‘zlashtirish darajasi 2021-yilga nisbatan qariyb 5 barobar oshdi. Joriy yilda 251,3 million dollar o‘zlashtirilishi kutilmoqda.

Bugun o‘zaro hamkorlikda 19 ta investitsiya loyihasini moliyalashtirish uchun 1,4 milliard dollar kredit jalb qilingan. Mazkur loyihalar doirasida hududlarda 2385 kilometr elektr uzatish tarmog‘i tortish hamda 8062 megavolt amper qo‘shimcha quvvat yaratish rejalashtirilgan. Ayni kunga qadar ularning 12 tasi ishga tushirildi. Natijada 2385 kilometr elektr uzatish tarmog‘i tortilib, 5004 megavolt amper qo‘shimcha quvvat yaratildi. Hozir yana 7 ta loyiha amalga oshirilyapti.

Umuman, investitsiya dasturi loyihalari ko‘lami ancha keng. Xususan, 2025-yilda umumiy qiymati 259,2 million dollar bo‘lgan 6 ta investitsiya loyihasi ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Buning hisobidan 485 kilometr uzunlikda elektr uzatish tarmoqlari tortiladi hamda 2 ta yirik podstansiya ishga tushiriladi. Xalqaro moliya institutlari krediti ishtirokida esa umumiy qiymati 200,2 million dollar bo‘lgan 2 ta investitsiya loyihasi ishga tushirilishi ko‘zda tutilgan.

Bu borada 2030-yilgacha mo‘ljallangan rejalar ham bor. Ular nafaqat reja, balki aniq loyihalardir. Jumladan, 2030-yilga qadar magistral elektr tarmoqlari va podstansiyalarni rivojlantirish hamda yangi elektr stansiyalarini energetika tizimiga integratsiya qilish maqsadida umumiy qiymati 4,1 milliard dollarlik 119 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish ko‘zlangan. 18 ta loyiha doirasida 4375 kilometrli umumiy quvvati 500 kilovatt bo‘lgan elektr uzatish tarmoqlari tortiladi. Mazkur loyihalarning 7 tasini davlat-xususiy sheriklik asosida investorlar amalga oshiradi.

Bir qismini muqobil energiya qoplaydi

Rejalar, loyihalar yaqin bir necha yillarni qamrab olayotgani bejiz emas. Boisi, elektr energiyasiga ehtiyoj kun sayin o‘sib boryapti va buni ta’minlash uchun oldindan choralar ko‘rish zarur. Masalan, 2030-yilga borib, mamlakatimiz iste’molchilarining elektr energiyaga yillik talabi joriy 74 milliard kilovatt-soatdan 110 milliard kilovatt-soatgacha oshishi hisob-kitob qilingan. Demak, yetkazib berish manbalarini ham shunga yarasha oshirib borish kerak. Bu talabning bir qismi esa muqobil energiya manbalaridan foydalanish ko‘rsatkichini oshirish hisobiga qoplanadi.

Bugun mamlakatimizni elektr energiyasi bilan ta’minlash haqida gap ketganida muqobil energiya manbalariga alohida e’tibor qaratilayotgani bejiz emas. Boisi, O‘zbekiston “yashil” energetika borasida qisqa vaqtda o‘z tajribasini yaratib, mintaqada yetakchilik qilmoqda. Hatto ilg‘or davlatlar yurtimizning bu boradagi dadil qadamlarini e’tirof etib, ushbu yo‘nalishga ikkilanmay sarmoya kirityapti.

Hozir yurtimizda umumiy quvvati 4119 megavatt bo‘lgan 11 ta quyosh fotoelektr stansiyasi hamda 4 ta shamol elektr stansiyasi “yashil” energiya ishlab chiqarmoqda. Joriy yil iyulida mamlakatimizdagi quyosh va shamol elektr stansiyalari tomonidan 1 milliard 246 million kilovatt-soat elektr energiya ishlab chiqarilgan. Bu O‘zbekiston energetika tizimi uchun yangi rekord natijadir.

Mazkur generatsiyaning 760,9 million kilovatt-soat qismi quyosh elektr stansiyalari, 485,4 million kilovatt-soati esa shamol elektr stansiyalari hissasiga to‘g‘ri keladi. Natijada 377,5 million kub metr tabiiy gaz tejalib, atmosferaga 1 million 120 ming tonna zararli gaz chiqishining oldi olindi.

O‘zbekistonda 2030-yilga borib, “yashil” energiya hajmini 54 foizga yetkazish maqsad qilingan. O‘tgan yili yurtimizda umumiy quvvati 3,5 gigavattli qayta tiklanadigan energiya manbalari muvaffaqiyatli ishga tushirildi. Joriy yilda yana shuncha quvvatdagi qo‘shimcha obyektlar foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan. 2030-yilga borib esa mamlakatimizda qayta tiklanadigan energiya manbalari quvvatini 25,4 gigavattga yetkazish ko‘zlangan.

Yurtimizda muqobil energiya manbalariga o‘tish ko‘rsatkichi ham talab, ham zarurat jihatidan ortib boryapti. Sanoat korxonalarini muqobil energiya tizimiga o‘tkazish choralari ko‘rilmoqda. 2027-yilgacha yirik korxonalar va turizm maskanlarida 752 megavattli quyosh stansiyasi hamda 812 megavattli saqlash quvvatlarini tashkil etish rejalashtirilgan.

Boshqa hududlarda ham ishlar jadal bajarilmoqda. Ko‘plab aholi xonadonlari allaqachon quyosh panellaridan foydalanishga o‘tgan. Natijada yurtimizda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmida qayta tiklanadigan energiya manbalari hissasi ortmoqda. 2023-yilda bu ko‘rsatkich 15 foizni tashkil etgan bo‘lsa, joriy yil oxirigacha 25 foizga yetkazilishi ko‘zlangan. Demak, 2030-yilgacha mo‘ljallangan 54 foizli natijaga ham erishiladi. Bu raqamlar O‘zbekistonning barqaror va kam uglerodli energetika kelajagiga sodiqligini namoyon etadi.

Umuman, milliy iqtisodiyotimizning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylangani holda energetika sohasida mahalliylashtirish darajasi oshib borayotir. Tarmoqda foydalaniladigan qurilmalarning aksariyati mahalliy korxonalarda ishlab chiqarilyapti. Tajribali mahalliy qurilish tashkilotlari tarkibida bugun 70 dan ortiq brigada va mingdan ziyod maxsus texnika mavjud. Ular 1 oyda 84 kilometr va 1-yilda ming kilometrdan ziyod 500 kilovattli elektr uzatish tarmoqlarini tortish imkoniyatiga ega.

Energetika ta’minoti sohasida bugun mablag‘ ham, mahalliy quvvat ham, sharoit va salohiyat ham yetarli. Faqat ularni tizimli va muntazam ishga solish, yangi quvvatlarni yaratishga qaratilgan loyihalar ko‘lamini oshirish lozim. Oldimizga qo‘yilgan ana shu maqsad va vazifalarni ro‘yobga chiqarish orqali yurtimizda elektr energiyasi uzluksizligini ta’minlashga bel bog‘laganmiz.

Yer — dehqon xazinasi

G‘alla yetishtirishning innovatsion usullari bilan tanilgan Ellikqal’a tumanidagi “Amirobod jayroni” fermer xo‘jaligi 2015-yilda tashkil etilgan. Bugun 50 kishi ish bilan ta’minlangan. Ushbu xo‘jalik a’zolari 195 gektar yerda har yili paxta, g‘alla yetishtirib kelmoqda. O‘tgan yili paxtadan gektariga 42 sentnerdan jami 417 tonna hosil olingan edi. Joriy yilda g‘allaning har gektaridan 86 sentnerdan xirmon ko‘tarildi.

QORAQALPOG‘ISTONLIK FERMERLAR

QISHLOQ XO‘JALIGINING BARCHA TARMOG‘IDA BARAKALI HOSIL YETISHTIRMOQDA

Xo‘jalikning 10 gektar yerida suv tejovchi texnologiyalar o‘rnatilgan. Fermer xo‘jaligi rahbari Rejepbay Avezov yaqinda eng faol va namunali fermer xo‘jaligi rahbari sifatida “Ilg‘or fermer” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

To‘rtko‘l tumanidagi “Chorvador” fermer xo‘jaligining 46 gektar yerida paxta, 25 gektarida g‘alla va 15 gektarida boshqa ekinlar yetishtirib kelinmoqda. 37 yillik faoliyat tarixiga ega xo‘jalikni bugun tajribali fermer Ismail Serjanov boshqarib kelmoqda. Joriy yil xo‘jalik a’zolari g‘allaning har gektaridan 80 sentnerdan hosil olib, 200 tonna don yetishtirgan bo‘lsa, 25 gektar joyda suvni tejovchi texnologiyadan samarali foydalanish orqali mo‘l hosil olishning uddasidan chiqdi.

— Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga munosib hissa qo‘shib kelayotgan ilg‘or fermerlarni rag‘batlantirish hamda sohadagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida hududlarda fermerlar bilan uchrashib, to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot qilinmoqda, — deydi O‘zbekiston fermerlari kengashi raisi Aktam Haitov. — Hammamiz juda yaxshi bilamiz: Qoraqalpog‘iston sharoitida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish ancha ko‘p mehnat talab qiladi. Shu bois, joylardagi muammo va takliflar o‘rganilib, fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning barcha chorasini ko‘rishga harakat qilyapmiz. Shuningdek, ilg‘or va namunali fermer xo‘jaliklari rahbarlarining mehnati munosib rag‘batlantirilmoqda. Tumanlardagi 100 dan ortiq ilg‘or fermer xo‘jaliklari rahbarlari ishtirok etgan konferensiyada ham ayni masalalar muhokama qilindi. Ularning yechimi, albatta, yurtimiz qishloq xo‘jaligi taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Haqiqatan, fermer va dehqonlarga huquqiy, iqtisodiy hamda texnik ko‘mak berib kelinmoqda. Bu yordam urug‘ni yerga sepishdan tortib, yetishtirilgan hosilni bozorga yetkazishgacha bo‘lgan barcha bosqichni qamrab oladi. Ushbu sa’y-harakatlar qishloq joylarda barqaror ish o‘rinlari ochish, aholining turmush darajasini oshirish va zamonaviy qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida alohida ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, agro.gov.uz platformasi orqali fermerlar uchun yer ijarasi, subsidiya, urug‘chilik, mahsulotlarni bozorga chiqarish va suv resurslarini boshqarish kabi yo‘nalishlar raqamlashtirilgan. Bugun mazkur platforma orqali 3,2 million gektar yer nazoratga olingan, 1,4 trillion so‘mlik subsidiya taqsimlangan va 843 ming dehqon raqamli ijara tizimiga jalb qilingan.

Bunday raqamli yondashuvlar fermerlar faoliyatini yengillashtirib, ishonchli ma’lumotlar asosida qaror qabul qilish imkonini yaratmoqda. 2025-yildan boshlab yangi avlod innovatsion platformalari — “AgroMonitoring”, “AgroDocs”, “Hosil Qabul 2.0” kabi loyihalar joriy qilinishi rejalashtirilgan. Bu yangilanishlar tarmoqni yanada shaffof, samarali va texnologik rivojlangan sohaga aylantirishi kutilmoqda.

So‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlari keltirib chiqarayotgan muammolar va dunyodagi beqaror geosiyosiy vaziyat har bir davlat, qolaversa, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari oldiga kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlarni ko‘rishdek mas’uliyatli vazifalarni qo‘ymoqda. Ayni paytda mamlakatimiz aholisi soni tobora oshib borayotgani sifatli qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyojning ortishiga olib kelayotir. Shunday murakkab vaziyatda soha rivojiga qaratilayotgan alohida e’tibor, mavjud resurslardan samarali va tizimli foydalanish, yaratib berilayotgan munosib mehnat sharoiti tufayli qishloq xo‘jaligining barcha tarmog‘ida barakali hosil yetishtirilib, barqaror o‘sish ta’minlanmoqda. 2020-2025-yillarda agrar sohani rivojlantirish uchun 30 ta qonun, 33 ta farmon va 120 ta qaror qabul qilingan. Aynan Qoraqalpog‘istonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha 20 dan ortiq qaror va farmon chiqdi. Qolaversa, fermerlarga imtiyozli kreditlar to‘g‘ridan to‘g‘ri ajratiladigan bo‘ldi.

Oxirgi uch yilda mahsulot yetishtiruvchilarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor berilib, 50 dan ortiq yangi subsidiya turi joriy etildi. Masalan, suv tejovchi texnologiyalar uchun 2,5-8 million so‘mgacha, xorijdan import qilingan qoramol, qo‘y va echkining har boshiga 0,4-2 million so‘mgacha, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati tuproq sharoitini inobatga olib, 2024-yildan har gektar lazerli tekislangan maydonga 1 million so‘mdan subsidiya ajratilmoqda.

— Joriy yil 13-avgustida davlatimiz rahbari raisligida to‘qimachilik sohasida eksport imkoniyatlari va zaxiralarni ishga solish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan video-selektor yig‘ilishida paxta yetishtirish va qayta ishlashni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha muhim tashabbuslar ilgari surildi. Unga ko‘ra, fermerlar paxtani o‘z vaqtida va nobud qilmay yig‘ib olishi uchun har tonnasiga 1 million so‘mdan subsidiya ajratiladigan bo‘ldi, — deydi Qoraqalpog‘iston fermerlari kengashi raisi Ilhom Yunusov. — Shu bilan birga, korxona o‘z mablag‘i hisobidan paxta yetishtirsa yoki xarid qilsa, xomashyo qiymatining 10 foizi davlat tomonidan qoplab beriladi. Bu, avvalo, fermerlar uchun sezilarli moliyaviy ko‘makdir. Har tonna paxta uchun berilgan subsidiya fermerlarning aylanma mablag‘ini ko‘paytirib, yig‘im-terim jarayonida texnika, ishchi kuchi va logistika xarajatini o‘z vaqtida qoplashiga yordam beradi.

Prezidentimizning qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha qator imtiyozlar berish nazarda tutilgan maxsus qarori e’lon qilinishi yurtimizga yangi texnika va agregatlarning kirib kelishiga yo‘l ochdi, hosildorlikka salmoqli hissa qo‘shdi.

— Bahor oylarida ob-havo juda qulay kelgani ham dehqonlarning xirmoniga baraka kiritdi, — deydi Ilhom Yunusov. — Bu yil Qoraqalpog‘istonda g‘alladan har yilgidan ham mo‘l hosil olindi. Albatta, ko‘zlangan maqsadlarga erishishda mirishkor fermer va dehqonlarimizning hissasi beqiyos. Joriy yilda aksariyat fermer xo‘jaliklari har gektardan o‘rtacha 90-95 sentnerdan g‘alla yetishtirdi. Beruniy tumanidagi “Yuldosh katli”, “Olmosbek To‘lqinjon o‘g‘li”, “Muxriddin Qurbanbayev”, Xo‘jayli tumanidagi “Botir Arkadiy”, “Agro Azerbay” va “Sultanov Toxtabay” fermer xo‘jaliklari hamda Taxiatosh tumanidagi “Sadullayev Jamshit” va “Jalayir” fermer xo‘jaliklari shular jumlasidan.

Dehqon va fermerlarning tinimsiz mehnati, agronomlarning bilim va tajribasi, soha xodimlarining fidoyiligi bu yuksak natijaga erishishda muhim o‘rin tutdi. Ular o‘z vazifasiga sidqidildan yondashib, mas’uliyat va fidoyilik namunasini ko‘rsatdi. Zamonaviy texnologiyalar va uskunalar yordamida g‘allaning sifatli saqlanishi ta’minlanmoqda. Bu yutuq Qoraqalpog‘istonning iqtisodiy taraqqiyotiga, aholi farovonligini oshirishga va mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

IJTIMOIY HIMOYA MILLIY AGENTLIGI

Nuqtayi nazar

Yurtimizning har bir go‘shasi — shaharu qishloqlar, tashkilotlar, ko‘cha va xonadonlarda mustaqilligimizning 34-yilligi shodiyonalari davom etmoqda. Erk va sharafimiz, milliy taraqqiyotimiz asosi bo‘lgan istiqlol bayrami shukuhi har bir yurtdoshimizning o‘y-xayoli, ezgu amallarida namoyon bo‘lyapti. Bir so‘z bilan aytganda, har birimizning yuragimiz “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” urmoqda.

O‘ZBEKISTON – IJTIMOIY DAVLAT

“INSON QADRI UCHUN, INSON BAXTI UCHUN” EZGU TAMOYILI JAMIYATDA XALQCHIL ISLOHOTLARNI QARORTOPTIRYAPTI

Nazokat JONIYEVA,
Shahrisabz tumanidagi
“Inson” ijtimoiy xizmatlar
markazi psixologi

Mana shunday sururli, qalblarimiz faxr-iftixorga to‘lib toshgan farahbaxsh kunlarda istiqlol sharofati uchun shukrona aytar ekanmiz, mustaqillik tufayli erishayotgan yutuqlarimiz, ayniqsa, keyingi yillardagi o‘zgarishlarni har birimiz o‘zimizcha tahlil qilamiz, o‘tgan yillarga qiyoslash orqali salmog‘ini chamalaymiz, yangilanishlarni o‘zimiz, oilamiz, jamiyatga berayotgan nafi nuqtayi nazardan baholaymiz.

Kimdir 5-6 yildan buyon qishloqlarda chiroq o‘chmayapti, bolalarimizni bog‘chaga beryapmiz, ko‘chalarimizga asfalt yotqizilyapti desa, boshqasi mas’ul rahbarlar muammosini so‘rab, bank xodimlari esa tadbirkorlik uchun moliyaviy qo‘llov taklifi bilan uyiga kelayotganini aytadi. Yana birovi barcha farzandlari oliy ta’lim muassasalarida o‘qiyotgani bilan maqtansa, keksalar nafaqasini o‘z vaqtida olayotgani, doimiy e’tibordan xursandligini yashirmaydi.

Albatta, keyingi yillarda ijarada yashab yurgan yuz minglab yurtdoshimizning vatan ichra o‘z kichik vataniga — uy-joyga ega bo‘lgani, davlat xizmatlaridan uydan chiqmagan holda foydalanayotganimiz kabi biz uchun yaratilgan qulayliklarning adog‘i yo‘q.

Shunga mos ravishda mamlakat miqyosida qo‘lga kiritilayotgan natijalarimiz ham behisob. Keyingi sakkiz yilda yalpi ichki mahsulotimiz 2 karra oshib, o‘tgan yili 115 milliard dollarga yetgani, kichik va o‘rta tadbirkorlar soni 2 karra ko‘paygani, 12 mingta ko‘p qavatli uy-joy barpo etilgani shular jumlasidandir. Yoki futbol bo‘yicha milliy terma jamoamiz ilk bor jahon chempionatiga yo‘llanmani qo‘lga kiritgani, Parijda Olimpiada rekordimiz yangilangani, yoshlarimizning ilm-fan, sportda qo‘lga kiritayotgan salmoqli natijalari ham tarixiy ahamiyatga ega. Ochig‘i, bu ro‘yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin.

Shu o‘rinda yana bir jihatga e’tibor qaratish lozim, nazarimda. Bu keyingi yillardagi eng katta yutug‘imiz yuqorida sanab o‘tilganlardan qaysi biri degan savol atrofidagi mulohazalar bilan bog‘liq. Albatta, bu savolga aniq javob topish imkonsiz. Zero, ulardan har birining yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash, tinch va farovon hayotimiz, iqtisodiyotimiz barqarorligini ta’minlashda alohida o‘rni, ahamiyati bor.

Gap garchi aniq javobi imkonsiz savol haqida borar ekan, psixolog sifatida men buni barcha muvaffaqiyatlarimizga asos o‘laroq odamlarimiz tafakkuri, turmush tutumidagi o‘zgarishlarni aytgan bo‘lardim. Binobarin,

jamiyatimizda “Qilsa bo‘lar ekan-ku!” degan ishonch ruhi mustahkam qaror topib borishi barobarida yurtdoshlarimizning bunyodkorlik, tadbirkorlik, yaratuvchanlik shijoati ortib boryapti.

O‘z navbatida, jamiyatimizga tobora chuqur singib borayotgan ushbu ishonch ruhi mamlakatimizda “Inson qadri uchun, inson baxti uchun” tamoyili asosida ro‘yobga chiqarilayotgan islohotlardan kuch olayotganini alohida ta’kidlash lozim. Darhaqiqat, keyingi yillarda aholi turmush darajasi yuksalib, shahar va qishloqlarimiz yanada obod bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, ijtimoiy sohadagi tub o‘zgarishlar xalqparvarlik siyosatining yorqin namunasi, desak ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. O‘zbekiston tom ma’noda ijtimoiy davlatga aylanmoqda.

Bu borada, avvalo, yoshlarga puxta bilim berish, hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun bozorda talab yuqori kasb-hunarlarni o‘rgatishga e’tibor kuchayganini alohida ta’kidlash o‘rinli. Zero, mazkur ishlar qator ijtimoiy masalalarga yechim bo‘lishi barobarida kambag‘allikni kamaytirishda muhim o‘rin tutmoqda. Xususan, yurtimizda kambag‘allik darajasi 2020-yildagi 23 foizdan 6,8 foizga tushirildi.

Xotin-qizlarning ta’lim olish imkoniyatini kengaytirishga qaratilgan alohida e’tibor — foizsiz ta’lim kreditlari, ehtiyojmand qizlarga grantlar ajratilishi, magistratura ta’limi uchun mablag‘ davlat tomonidan qoplab berilishi kabi imtiyozlar oliy ta’limdagi xotin-qizlar ulushi ortishiga xizmat qilmoqda. Ushbu xayrli ishlar tufayli so‘nggi yillarda qizlarning oliy ta’limdagi qamrovi oshib bormoqda. Shu o‘rinda ta’kidlash joiz, oliy ta’lim qamrovi 9 foizdan 42 foizga yetdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mustahkamlangan “O‘zbekiston — ijtimoiy davlat” tamoyili amaliy mazmun kasb etib, xalqchil islohotga aylandi.

Prezidentimizning 2023-yil 1-iyundagi farmoni bilan Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilishi, 2023-yil 28 sentyabrdagi “Aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan esa “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi har bir inson taqdiriga alohida e’tibor qaratish tamoyilining amaliy ifodasi bo‘ldi.

Yangi tizimdagi faoliyatim davomida qat’iy ishonch hosil qildimki, og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushgan inson o‘zini yolg‘iz, atrofdagilar uchun ortiqcha yuk yoki keraksizdek his qila boshlaydi. Bunday paytda har doimgidan ham ko‘proq e’tiborga, qo‘llovga muhtojlik sezadi. Qiyin paytda ularga berilgan ozgina ko‘mak, ruhiy dalda yoki huquqiy maslahat minglab taqdirlar hayotini qayta izga solishga zamin bo‘ladi.

Ushbu tizimdagi faoliyatimdan qiyos. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi psixologi sifatida tazyiqqa uchragan, ruhiy tushkunlikka tushib qolgan yurtdoshlarimiz bilan ko‘p muloqot qilaman. Ularni og‘ir vaziyatdan olib chiqishga ko‘maklashar ekanmiz, yangi tizim bo‘lmaganida nima bo‘lardi, bularga kim yordam berardi deb o‘ylab qolaman. Axir turmush atalmish oilaviy munosabatlarda ba’zan shunday qaltis vaziyatlar bo‘ladiki, muammo hal etiladigan nuqtani topguningcha yara gazak otib, kesar holatga kelib bo‘ladi.

Masalan, yaqinda bir yurtdoshimiz markazimizga turmush o‘rtog‘idan tazyiqqa uchrayotgani bo‘yicha murojaat qildi. Murojaatchi xonadoniga borib, u bilan suhbatlashdim.

Guljahon opa farzandsizlik sabab 10-yil birga yashagan birinchi turmush o‘rtog‘i bilan ajrashgan. Yaxshi niyatlar bilan ikkinchi bor turmush qurib, ikki farzandli bo‘lgan. Lekin ushbu xonadondagi oilaviy nizolar sabab eridan doimiy ruhiy va jismoniy tazyiqqa uchragan.

Murojaatchi bilan suhbatlarda yana ayon bo‘ldiki, Guljahon opaning bir buyragi yoshligida operatsiya yo‘li bilan olib tashlangan.

Markazimiz tomonidan zudlik bilan yordam choralari ko‘rilib, murojaatchiga, birinchi navbatda, himoya orderi rasmiylashtirildi. Tuman tibbiyot birlashmasi bilan hamkorlikda buyragi va umuman, sog‘lig‘ining holati tekshirilib, davolandi. Bundan tashqari, psixologik yordamlar natijasida hozir Guljahon opa o‘zini yaxshi his qilmoqda, o‘ziga ishonchi ortgan.

Aslida, shu kabi qo‘llab-quvvatlov, ko‘mak orqali jamiyatda ijtimoiy birlik ta’minlanadi. Birlashgan, hamjihat jamiyat esa yuqorida sanab o‘tganimiz kabi katta-katta muvaffaqiyatlarga erishaveradi. Zero, Prezidentimiz mustaqilligimizning o‘ttiz to‘rt yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda qayd etganidek, **“Xalqimiz asrlar davomida orzu qilib, kurashib o‘tgan inson qadrini ulug‘lash, uni baxtli qilish barcha islohotlarimizning ma’no-mazmunini tashkil qilmoqda. “Inson qadri uchun, inson baxti uchun” degan ezgu tamoyilga asoslangan Yangi O‘zbekiston g‘oyasi amalda qudratli harakatga aylandi”.**

Mulohaza

POYDEVORI MUSTAHKAM, KELAJAGI YORQIN

Mamlakatimizda istiqlol bayrami shukuhi kezib yurgan shu kunlarda ko‘ngilni o‘zgacha tuyg‘ular, bunyodkor hislar qamrab oladi. Zero, mustaqillik doimiy rivojlanish, asrab-avaylash va unga munosib bo‘lishni talab etuvchi mas’uliyatdir. Prezidentimiz islohotlari esa uni yangicha mazmun va maqsadlar bilan to‘ldirib, muttasil barqarorligini ta’minlamoqda. Bugungi yangilanishlar mustaqillikning ilk yillarida qo‘yilgan poydevorni mustahkamlaydi. Bu jarayonning pirovard maqsadi yanada erkin, farovon va qudratli yangi O‘zbekistonni barpo etishdan iborat.

Sohiba ZOKIROVA,
Farg‘ona davlat universiteti
professori, filologiya
fanlari doktori

Ortga bir nazar tashlasak, yaqin tariximizda millat uchun fido bo‘lgan, uning kelajagi yo‘lida jon kuydirgan jadidlar harakati katta iz qoldirdi. Ular o‘z davrining eski qoliplarini buzib, xalqni ilm-ma’rifat, yangilikka chorlagan modernistlar edi. Davr shiddat bilan o‘zgarayotgan bir paytda biz yana bir yangi jadidlik harakatining guvohi bo‘lib turibmiz. Bu harakatning bosh tashabbuskori, millatning yangi umidi — Prezidentimiz. Bugun yon-atrofimizda ro‘y berayotgan yangilanishlar, hayotimizdagi o‘zgarishlar ana shu tashabbus va qat’iy iroda samarasidir.

shior ulkan islohotlar, tub o‘zgarishlarning mohiyatiga aylandi. Uning zamirida xalqning farovonligi, tinchligi va kelajagiga yuksak ishonch mujassam.

Bir necha yilda O‘zbekiston butunlay yangi qiyofaga ega bo‘ldi. Yopiq eshiklar ochildi, xalq davlatdan, davlat xalqdan uzoqlashgan devorlar buzildi. Prezidentimiz odamlar bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘ydi. Xalqning dardiga darmon bo‘lish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bu jarayon xalq bilan davlat o‘rtasida yangicha munosabatlarni shakllantirdi, ularni o‘zaro ishonch va hamkorlik asosida birlashtirdi.

Mazkur islohotlar shunday jadal davom etdi. Yaqin yillarda mamlakatdagi har bir soha o‘zgarishga yuz tutdi. Bundan 10 yillar oldin oliy ta’lim sohasi jiddiy muammolarga duch kelgan edi. Ko‘plab yoshlarning oliy ta’limga kirish imkoniyati cheklangan, davlat grantlari, kvotalar soni kam edi. Endi esa bu borada tub o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Keyingi yillarda mamlakatimizda qator yangi universitet va institutlar ochildi. Bu, o‘z navbatida, yoshlarning oliy ta’limga talabini qoplashga yordam berdi. Shuningdek, xorijiy oliygohlarning filiallari ochilgani o‘zbekistonlik yoshlarga dunyo standartlariga mos bilim olish imkonini berdi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalariga qabul kvotalari sezilarli darajada oshirildi. Natijada minglab abituriyentlarning orzusi ushaldi, oliy ma’lumotli mutaxassislar ko‘paydi. Quvonarlisi, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi jahon andozalariga muvofiqlashtirilmoqda. Talabalar uchun kredit-modul tizimi joriy etildi.

Bunga davlatimiz rahbarining mustaqilligimizning 34 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida keltirilgan raqamlar, jumladan, keyingi sakkiz yilda yalpi ichki mahsulotimiz 2 karra oshib, o‘tgan yili 115 milliard dollarga, eksport qiymati 26 milliard dollarga yetgani, yil yakuni bo‘yicha yalpi ichki mahsulotimiz 130 milliard dollarni tashkil etayotganini keltirishning o‘zi kifoya.

Shuningdek, xalqimizning ko‘z o‘ngida minglab zamonaviy korxonalar, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilma obyektlari qad rostlamoqda. O‘tgan davrda birgina kichik va o‘rta tadbirkorlar soni 2 karra ko‘paydi. Bugun ushbu tarmoqda 10 milliondan ortiq yurtdoshimiz mehnat qilib, daromad topmoqda. Bular — iqtisodiy raqamlar, lekin ularning hayotimizga daxldorligi, mazmun-mohiyati boshqacha.

Shu davrda oliy ta’limda ham keskin burilish yuz berib, qamrov 9 foizdan 42 foizga yetkazildi. Ayniqsa, talabalarning 53 foizi xotin-qizlar ekani yanada quvonarli. Hozir dunyodagi nufuzli oliygohlarda 2000 dan ziyod o‘zbek yigit-qizlari tahsil olmoqda. Ulardan 750 nafari “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali davlat hisobidan o‘qiyapti. O‘tgan yili yurtimiz yoshlari eng yetakchi 500 talikka kirgan OTMlarga o‘qishga kirish bo‘yicha Markaziy Osiyoda birinchi o‘rinni egallagani tarixiy voqeadir.

Davlatimiz rahbarining pirovard maqsad-muddaosi — xalqimizni rozi qilish. Bu esa o‘quv jarayonini mustaqil rejalashtirish imkonini berdi.

Oliy ta’limga kirish imtihonini shaffoflashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish ham asosiy vazifalardan biriga aylandi. Bu jarayon yoshlarning bilimi va qobiliyatini to‘g‘ri baholashga imkon yaratib, adolatli muhitni shakllantirdi.

Universitetlarda ilmiy tadqiqotlar, innovatsion ishlanmalar qo‘llab-quvvatlanmoqda. Yosh olimlar uchun grantlar ajratilmoqda, ularning ilmiy salohiyatini rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda. Talabalarga moliyaviy yordam berish maqsadida yangi stipendiyalar, imtiyozli kreditlar ajratilmoqda.

Biz, ustozlar shu islohotlar tufayli bugun qadr-qimmat topdik, ehtirom ko‘rdik, nafaqat qarashlarimiz, balki turmush tarzimiz butkul o‘zgardi. Taraqqiyot, haqiqat, ilm-ma’rifat, inson qadri islohotlarning bosh mezoniga aylandi.

Bugun O‘zbekiston butun dunyoga ochiq, do‘stona siyosat yuritayotgan mamlakat sifatida qabul qilinmoqda. Xalqaro maydonda yurtimiz ovozi yanada baland yangramoqda. Bu yutuqlar ortida birgina shaxs emas, balki butun millatni birlashtira olgan, unga yangi ruh bag‘ishlagan yetakchining dono siyosati va shijoati turibdi. Hozirgi islohotlar, ezgu niyatlar va bunyodkorlik ruhi kelajak avlodlarga munosib hayot qoldirish uchun qo‘yilayotgan ulkan qadamlardir.

MEHNATI ORTIDAN HAYOTINI O‘ZGARTIRGAN KELIN

Oramizdagi odamlar

Bundan to‘rt yil avval Komilaning ijtimoiy holati juda og‘ir edi. Taqdir uni yolg‘iz boshi bilan to‘rt o‘g‘il, uch qizni tarbiyalash, ro‘zg‘ori uchun non topishga majbur qildi. Yaxshiyamki, yurtimizda xotin-qizlarga yuksak e’tibor qaratilib, qator imkoniyatlar yaratilmoqda. Mana shunday sharoit va sofdil odamlar ko‘magi Komilaning hayot sinovlari va mashaqqatlarini yengib o‘tishiga turtki berdi.

Komila Jo‘rayeva Zominda tug‘ilgan. Taqdir taqozosi bilan Zarbdor tumaniga kelin bo‘lib tushdi. Hayot sinovlari uni ham chetlab o‘tmadi. 2020-yilda yetti bolasini qanday qilib to‘kis voyaga yetkazish tashvishi bilan yurganida gul sotayotgan bir amakini uchratib qoldi. Qizi tengi ayolning horigan chehrasiyu tushkun kayfiyatini ko‘rib, Odil aka unga dalda berdi va: “Qizim, gulchilik ham yaxshi kasb, yaxshigina daromad keltirishi mumkin”, deya shu kasbni o‘rganishni tavsiya qildi. Garchi uning so‘zlari o‘z tashvishi bilan band Komilaning qulog‘iga kirmayotgan bo‘lsa-da, amaki kuyinib gapirganidan xijolat bo‘lib yonidagi oxirgi puliga bir quti gul sotib oldi. Shundan so‘ng xuddi ertaklardagi kabi hayot uni o‘z domiga tortdi…

Dastlab bu gullarni bir necha joyda sotishga urindi, ammo sota olmadi. Toqati toq bo‘lib turganida esa savdosi yurishdi. U harakatchan emasmi, yana qayta urinib ko‘rdi, xaridor chiqqanda shodlanar, chiqmaganda yana butun tashvishi yelkasini bosib qolardi.

“Bir qoqilsang, uchgacha…”, deganlaridek, qoqilib-qoqilib endi omadi kulgandek tuyuldi: tez orada tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi imkoniyatlar ochilib, Komila ham 10 million so‘mlik kredit olishga muvaffaq bo‘ldi. Issiqxona qurib, faoliyatini boshlashga qaror qildi. Dastlab yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ish boshlagan bo‘lsa, 2022-yil yanvarida “Zarbdor zirapchasi” gul ko‘chatlarini yetishtirish tomorqa xizmati” MCHJni tashkil qildi.

— Ustozim, jizzaxlik gulchi Odil boboning maslahati bilan gulchilikni puxta o‘rgandim, — deydi “Zarbdor zirapchasi” gul ko‘chatlarini yetishtirish tomorqa xizmati” MCHJ rahbari Komila Jo‘rayeva. — Asta-sekin gullar bilan birga, urug‘chilikni ham rivojlantirdik, ko‘chat sotdik, tarmog‘imizni kengaytirdik. Hozir gulchilik bilan birga parrandachilikni ham yo‘lga qo‘yganmiz. O‘rdak, g‘oz, tovuq, kurka boqyapmiz, do‘konlarga tuxum, parranda go‘shti yetkazib beramiz. O‘tgan yili kurka go‘shtidan yaxshi daromad oldik. Bu yil mahsulotimizni tumandan tashqariga ham sotishga qaror qildik.

MCHJ nomini unga el berdi. Bu nom qiyinchiliklar ichida kurashib, mashaqqatlarda toblangan, bo‘y cho‘zgan, turmush tashvishlarida chiniqqan gul nishi ma’nosini beradi. “Zarbdor zirapchasi” mahalladoshlariga ham beminnat ko‘mak qo‘lini cho‘zib kelayotir. “Ayollar daftari”da turadigan 35 kishini ish bilan ta’minladi. Yana 12 kishiga xonadonida biogumus tayyorlashni o‘rgatib, daromadga kirishiga sabab bo‘ldi. Bugun ular ham o‘z biznesini yo‘lga qo‘yib, ro‘zg‘orini obod qilayotir.

— Oxirgi paytda quyonchilikka ham qiziqib qoldim, — deydi Komila Jo‘rayeva. — Hozir jaydari quyon boqyapmiz. Keyinchalik sharoitlarni yanada yaxshilab, gigant quyonlarni parvarishlashni niyat qilganmiz. Shuningdek, mevali va manzarali daraxt ko‘chatlarini yetishtirishni yo‘lga qo‘yganmiz. Ko‘katlar urug‘chiligi bilan shug‘ullanamiz. Aholiga imkon boricha yaxshi xizmat ko‘rsatyapmiz, turli tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlaymiz. Hozir sayroqi qushlar, baliqlar turini ko‘paytirish ustida ishlayapmiz.

Komila topayotgan daromadini farzandlarining yaxshi o‘qishi, sport bilan shug‘ullanishi, bilim olib, yaxshi kasb egalari bo‘lishi uchun sarflayapti. Bolalarining tarbiyasida onasi ko‘maklashadi. Bir qarashda nozikkina ko‘ringan Komilaning ketmon chopib, yer ag‘darganini ko‘rganlar gulchi shunaqa og‘ir ishlar qiladimi deb hayron qoladi.

— Prezidentimiz o‘tgan yili tumanimizga tashrifi chog‘ida zarbdorliklarni “uyg‘otib” ketdi, — deydi yosh tadbirkor. — Shundan ruhlanib men hozir qishloqda eng kam ta’minlangan, “Ayollar daftari”da turadigan, ishimga qiziqqan ayollarning uyiga borib, ko‘kat va gul ekishni o‘rgatdim. Zarbdor, Zafarobod, Paxtakor, Sardoba, Xovos, Yangiyer, Zomin tumanining qator mahallalariga bordim. Gulchilikni o‘rganishga qiziqqan opa-singillarimizning uyiga borib o‘rgatdim. Urug‘ yo‘q deganga — urug‘, yelimxalta yo‘q deganning qo‘liga xalta berib, mahsulotlarini bozorga olib chiqishga undadik. Xaridorni ham o‘zimiz topib beramiz, dedik. “Issiqxonachilik bilan shug‘ullanaman”, deganlarning issiqxonasini to‘ldirib limon ekib berdik, u hosilga kirguncha tagiga sarimsoqpiyoz, ko‘kat ekishni o‘rgatib keldik. Gulini sota olmagan opa-singillarimizga ham yordam ko‘rsatdik. Ulardan bir nechtasi shu asnoda “Ayollar daftari”dan chiqib oldi. Tumanimizda 10 dan ortiq gulchi shogirdim bor, ular ham o‘zini o‘zi tiklab olgan.

Xalqning roziligi, duosi shu yutuqlarga erishishimga sabab bo‘ldi. Ustozim Odil boboni o‘z maslahati, ko‘rsatgan to‘g‘ri yo‘li bilan meni boshi berk ko‘chadan olib chiqqani uchun duo qilaman. “Qizim, hali qator-qator mashina minasan, bu kunlaring o‘tib ketadi”, deganida o‘z uyim, mashinam bo‘lishini tasavvur ham qilolmasdim. Yaratganga shukr, hozir hammasiga erishdim. Yana bir ajoyib jihati bor: biz tarafdan kim oldiga borsa, shu qiz — mening shogirdim, shuni qo‘llang, der ekan. Menga kelib, “Shu odam ustozingiz ekan, sizni rosa maqtadi, duo qildi”, deydi. Eshitib xursand bo‘laman.

Prezidentimiz kamtarona mehnatimizni yuksak baholadi, “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni bilan taqdirladi. O‘sha kuni oilamizda bayram bo‘ldi. Farzandlarimning, onamning quvonchi cheksiz. Bizga bildirilgan ishonch uchun ko‘p rahmat. Buni oqlashga, bundan-da yaxshiroq natijalarga erishishga, ko‘proq ayollarga yordam berishga intilamiz. “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni qachondir men yurgan yo‘llardan yurib, ro‘zg‘orini eplashga urinayotgan opa-singillarimizni ruhlantiruvchi kuchdir. Tushkunlikka tushgan odamlarni avval rag‘batlantirib, keyin ko‘mak bersangizgina uyg‘onadi, ko‘ksi bo‘sh odam biror ishga qo‘l urmaydi. Ayrimlar 30 ga kirdim, endi nimayam qilardim, deydi. Odamlar 60 yoshida ham tadbirkor bo‘lib shakllanyapti, o‘qiyapti, o‘rganyapti, shaxsiy biznesini ochyapti. Hozir men ham ingliz tili kurslariga boryapman, til o‘rganyapman. Sportga, qo‘l jangiga qiziqardim yoshligimda, bitta murabbiy topsammikan deb turibman.

Bugun tadbirkorning xonaki 500 dan ziyod, tomorqabop 200 turdagi gullari mavjud. Ular bugun turli ijtimoiy soha obyektlari, ko‘makka muhtoj xonadonlar hovlisini bezab turibdi.

“Gulchilik juda nozik kasb. Buning uchun sizda bilim va tajriba bo‘lishi kerak. Bu tajriba, albatta, yillar davomida shakllanadi. Bugun ro‘zg‘origa daromad keltirishni istayotgan opa-singillarimizning “Shu ishni qila olaman”, deya urinib ko‘rishini xohlardim. Inson “Men eng yaxshisiga loyiqman”, deb harakat qilsa, albatta, hamma narsaga ega bo‘ladi. Dunyoni o‘zgartirma, avval o‘zing o‘zgar, deya bejiz aytilmagan”, deydi Komila.

Hamsuhbatim gullar barq urgan mahali uyiga mehmonga borishimni taklif qildi. “Qishda gulchinikiga borilmaydi”, deya xandon otib kuladi u. “To‘g‘ri, issiqxonasida gul bo‘ladi, lekin hovlisi qishda chiroyli bo‘lmaydi”, deydi. Biz ham tadbirkorning ishlariga zafar tilab, elning olqishini olib barq urib yuring, deya tilak bildirdik.

Xolnisa RAHMONQULOVA,
jurnalist

VATANNI ANGLASH

Farmon TOSHEV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist

Vatanni sevish so‘zdan ko‘ra, dilda, vujudda ko‘proq sezilar ekan. Dilda bo‘lganda uning zavqu shavqi yuzingda, ko‘zingda, harakatingda sezilib turarkan.
Vatanning katta-kichigi, yaxshi-yomoni bo‘lmaydi. Vatan uchun qurbon bo‘lishga tayyorman, deyishdan ko‘ra, unga munosib yashashni o‘rgangan ma’qul. Ulug‘ jadid shoirimiz Abdurauf Fitrat ushbu muqaddas makon haqida “Mening jonu tanim, sajdagohimdur” deganida yuz karra haq edi. Zero, O‘zbekiston Qahramoni, o‘zbekning yana bir ulug‘ shoiri Abdulla Oripov ham bu fikrni “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?” nomli she’rida juda chiroyli ifodalagan.

Xorijdan qaytganda, Vatanim — Toshkentga samolyotdan tushganimda, keyin ilm va tajriba bergan Samarqandga yetganimda, undan so‘ng bolalik va o‘smirligim o‘tgan Ziyovuddinga kirib kelganimda, ichimda “Shukr!” deyman. Bu so‘z eng keyingi maskanda vujudimda butunlay boshqacha jaranglaydi. Go‘yo o‘zimga tegishli mulk hududida yurgandek his qilaman. Tanigan, tanimaganlarim — barchasi qarindoshlarimga, yaqinlarimga o‘xshaydi.

Esimda, 13 yoshimda maktabdan Toshkentga — o‘quvchilar oromgohiga jo‘natishdi. Safardan qaytgach, jo‘ralarim bilan sayohatimni muhokama qilganmiz. Tabiiyki, men ko‘rganlarimni o‘zgacha g‘urur bilan aytib beraman:

— Cho‘miladigan kanali bor, suvi tip-tiniq!

— E, o‘zimizning Narpay kanali zo‘r. Uyning oldida. Ba’zan loyqa bo‘lsayam, maza qilamiz, — deydi Rahim.

— Qavatli uylar bor ekan Toshkentda!

— O‘zimizning hovli yaxshi. Sigir bor, qo‘y bor, tandir bor, hozir quyon ham boqyapman. Qavatli uylarda bolalar zerikadi, — deydi boshqa bir o‘rtog‘im.

— Bizga kotlet, kakao berishdi, nonlarni ham pichoqda kesib, bo‘laklab berisharkan!

— Onam pishirgan un oshidan shirin taom bormi?! Bizning chalob bilan o‘rik suvidan ichib ketsin ular, — deydi boshqa sinfdoshim.

Xullas, aytganlarimga havas qilishsa-da, ular Ziyovuddinni, o‘zimizning taomlarni ma’qul ko‘rishadi. Havosiyu tuprog‘i, suvigacha zo‘r ekanini isbotlash uchun soatlab tortishishdan charchamaydi. Endi o‘ylab qarasam, Vatanga muhabbat o‘shanda bolalik o‘yinqaroqligiyu jomadonimizni qo‘ltiqlaganimizcha bizni shaharga kuzatgan qishloq, oilamizda supadagi dasturxon atrofida kechgan qizg‘in suhbatlar shuurimizga hech ketmaydigan bo‘lib joylashgan ekan. Vatan deganda ayvoniga qaldirg‘och in qurgan uyimiz, atrofiga rayhon ekilgan supa, mung‘ayibgina turgan tandir, har kuni tongda va kechda suv sepilib, supurilgan tuproqli ko‘cha, quyosh ufqqa bosh qo‘yganda ko‘chani to‘ldirib qo‘y-qo‘zilarni haydab kelayotgan cho‘pon bobo va nihoyat maktabni tugatgach, katta yo‘lga chiqqanimizda qo‘l siltab bizni olqishlab kuzatgan, xuddi harbiylardek saf tortgan teraklar... hamma-hammasi kino tasmasidek ko‘z oldimdan o‘taveradi. Balki Vatan deganlari shudir?

Ziyovuddinga har gal borganimda ota uy darvozasi oldida o‘tirib, bir zum olis bolalikka qaytaman, qo‘shnilarimizni, qarindoshlarimni eslayman. Ularning ko‘pi bugun oramizda yo‘qligini eslab, bo‘g‘zimga nimadir tiqiladi. Oldimdan o‘tayotgan har bir kishi salom beradi yoki ko‘rishib o‘tadi. Ko‘pini tanimayman, ammo yuz tuzilishi, gap-so‘ziga qarab kimgadir o‘xshataman, mengzayman. Go‘yo ularda yoshligimni ko‘rganday bo‘laman. Gapga tutaman, ishi, o‘qishi, kelajakdagi rejalari haqida to‘lqinlanib gapirishida ertangi kunga ishonchi mustahkam ekanidan ko‘nglim yayraydi. Balki Vatan deganlari shu ishonchmikan?!

Esse

Mening ham ular bilan gaplashgim kelaveradi. Chunki ana shu zamin ruhi bizni yaqinlashtiradi. Dunyoni anglashda bir-birimizga yordam berganmiz. Mabodo ulardan birini boshqa yerda ko‘rib qolsam ham ana shu ruhni sezaman. Ularda ham shunday holat bo‘lsa kerak. Ular orqali bolalikdan shuurimga singgan fazilatlar bor. Ana shu fazilatlar bu zaminni qadrli, muazzam ko‘rsatadi.

Darvoza oldidagi o‘rik daraxti usta Tosh bobomning fe’li, halolligini eslatib turadi. O‘zim tug‘ilib o‘sgan joy bilan bog‘liq bunday qadrli misollar juda ko‘p. Ha, ularni qadrli deb atashga haqliman. Axir ularning har biri menga saboq bergan, har biri yuragimning qat-qatiga singib, shirin xotiralarga aylangan. Mana, oradan necha o‘n yilliklar o‘tsa-da, hamon qalb xotiralaridan eng chiroyli bitikday joy olgan. Yo‘llar, daraxtlar, nabotot olami, momomning tandiri, hassa tayanib turganday binolar, g‘amlangan o‘tinu sovuqda o‘tinni charsillatib yondiradigan qadrli pechka...

Bilasizmi, hatto osmondagi oy va yulduzlar ham qishlog‘imda boshqacharoqday tuyuladi. Turfa fe’lini hech kimdan yashirmaydigan va o‘z navbatida qishloqdoshlari ham shu fe’liga yarasha muomala qiladigan samimiy odamlar... Eslaganimda ulardan birortasi yodimga tushmasa, xotiralarim kemtik, yetim bo‘lib qoladi. Balki Vatan deganlari shudir?

Ajdodlarim yurti — ko‘hna kent Qarnabotaga o‘tsam, ostonasidayoq ruhimga g‘urur inadi. U, menimcha, bobolarim, momolarim mehri, ulardan o‘tgan muhabbat bo‘lsa kerak. O‘nqir-cho‘nqir yo‘llar, hozir ham turgan guvalakdan qilingan devorlar erish tuyulsa-da, ko‘zimga qadrdon ko‘rinadi. Yo‘l yoqasidagi isiriqlar, yaylovda sarg‘aygan maysayu shuvoqlar meni kutib turganga o‘xshaydi. Ularda ajdodlarim tirikchiligi, quvonchu g‘amlari akslangandek tuyuladi.

Qaysi faslda borsam ham bu zamin ko‘zimga mehrli, qadrdon ko‘rinaveradi... Bilmadim, ehtimol, barcha qishloqdoshlarimda shunday bo‘lsa kerak. Taqdirimda muhim bo‘lgan boshqa makonlar otini aytsam ham bo‘lar, biroq ana shu qadimiy qishloq ruhi xayolimda meni kechayu-kunduz ko‘tarib yurgandek...

Mabodo viloyatdagi biror tadbirda qishloqdoshimni ko‘rib qolsam, darhol bag‘rimga bosaman, hol-ahvol so‘rayman. Negaki u bobom, otam yurgan yo‘llardan yurib kelgan, unda kindik qonim to‘kilgan zaminning, yalpizu shuvoqlarning hidi, nafasi bor. Vatan muqaddas, muazzam tuproq, unga munosib bo‘lmoq lozim. Aks holda...

Bolaligimdagi bir voqea hech esimdan chiqmaydi. Qishlog‘imizdagi bir oila bir kechada Jizzaxga cho‘lni o‘zlashtirish uchun ko‘chib ketdi. Maktabda o‘qiydigan bolalari ham birga ketdi. Keyinchalik eshitsak, oila boshlig‘i va ayoli mahalla uchun juda nojo‘ya ish qilgan. Mahalla oqsoqollari qarori bilan ular ko‘chirib yuborilgan. Biroq ana o‘sha oila boshlig‘i vafot etganda qishlog‘imizga olib borilib, dafn qilindi. Farzandlariga shunday vasiyat qilgan ekan. Ehtimol, shu zaminda uning ruhi taskin topgandir...

Paxtachidagi 25-maktabda o‘qiganman. Bitirish arafasida o‘g‘il bolalar maktab uchun Zarafshon daryosi yaqinidagi zavod hovlisida mingtadan g‘isht quyib berardik. Ammo men, Egamberdi Rahmonov (joyi jannatdan bo‘lsin!) va Rahim Sultonovga maktab uchun qorovulxona qurish topshirildi. 1970-yilda tiklangan o‘sha bino hozirgacha turibdi. Har gal maktabimga borganimda u ko‘zimga koshonadek ko‘rinadi. Chunki unda mehrim, mehnatim bor. U men uchun Vatanimning bir bo‘lagi. Demoqchimanki, inson o‘zi barpo etgan maskanni ko‘proq sevadi. Vatan sadoqatli farzandlari mehnati bilan go‘zal diyorga aylanadi. Chet eldagi har qancha go‘zal, hashamatli joylarga havas qilmaylik, uni o‘z vatanimizchalik seva olmaymiz. Vatanni sevgan odam uni qizg‘anib sevadi, ich-ichidan sevadi.

Ulug‘ kitoblarimizda “Vatanni sevmoq imondandir” degan hikmat bor. Bu bejiz aytilmagan. Vatanni sevish uchun unga munosib ham bo‘lmoq lozim. O‘zingiz ayting, ziyoli bo‘la turib, yaxshi shogird tayyorlamagan, xalqning puli — byudjetga ko‘z olaytirgan yoki lanjligi, loqaydligi bois, o‘zini o‘zi uddalay olmagan odamlar Vatanni sevaman, deyishga haqlimi? Axir yoshlikdan singgan odat bor: biror ish boshlasam, usta Tosh bobom nima deydi, qishloqdagilar qanday fikr bildiradi degan xayol bugun ham, shu yoshimda ham tark etmagan. Bu qishloqdoshlarimga munosiblikdir, balki Vatanga mehr deganidir.

Ba’zan O‘rtacho‘l bag‘ridagi ixchamgina Qarnabota qishlog‘i to‘ylaridagi bir holatni ko‘rib, qalbim g‘ururga to‘ladi. To‘y qilinsa, uzoq-yaqindan juda ko‘p mehmon boradi. Mamlakatdagi ko‘plab hududlardan do‘stlar, qudalar bor. O‘z o‘rnida ular ham mehmonga borib turadi. Chunki ular Qarnabota sha’nini hurmat qiladi.

Esimda, otam rahmatli Is’hoq muallim universitetga o‘qishga kirganimda “Bolam, bu jarayon mening ham boshimdan o‘tgan. Bilasan, ayrim domlalarimning farzandlari, kursdoshlarim bilan haligacha bordi-keldi qilaman. Sen ham safdoshlaringni qadrla, ularga doimo yordam berishga tayyor tur. Toki ular sen orqali avlodimizga, qishlog‘imizga mehr qo‘ysin”, deb nasihat qilgan edi. Qarang, qanday olijanob holat: qishlog‘imning bitta yaxshi odami tufayli butun mamlakat bitta fikrga keladi. Demak, Vatan mehri bizni birlashtiradi, kerak bo‘lsa, tarbiyalaydi.

Yurtini sevgan odam Vatan ta’rifida chiroyli tashbehlardan tiyiladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyidning Vatan mavzusidagi she’rlarini qayta-qayta o‘qiyman. Ular vatanparvarlik mavzusini, vatan madhini qalbga yetib boradigan tarzda ta’riflagan. Vatanga sadoqat tuyg‘ulari ham, nazarimda, qog‘ozga osongina tushmaydi. Vatanga muhabbatni his qilgan odamning ruhiyati, ko‘zi, harakati bu holatini ko‘rsatib turadi. Chunki ular, eng avvalo, odamlarni, xalqni qadrlaydi, sevadi.

Bolaligimdagi tasavvurlarim qishlog‘imning go‘zalligi, sermeva bog‘lari bilan bog‘liq. Unda hayrat kuchli edi. Endi esa... men ko‘zim tushgan har bir narsa, duch kelgan har bir odamda hikmat ko‘raman.

Vatan ostonadan boshlanadi. Uyini, mahallasini, qishlog‘ini seva olmagan kishi Vatanni seva olmaydi. Vatanga muhabbat yurakdan boshlanadi, uni oila, atrofdagi yaxshi odamlar shakllantiradi. Vatan neligini anglash uchun bir kishining umri kamlik qilar ekan. Yurtimizdagi har bir xas, yer, suvu havo, hayvonotu nabotot, insonlar Vatan degan go‘zal manzaraning unsurlaridir. Mamlakatimiz hayotidagi unutilmas hodisa yodimdan chiqmaydi: davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida o‘zbek tilida nutq so‘zladi!

Ha, xalqimiz yetakchisi shijoat ko‘rsatib, minglab odamlar ko‘z o‘ngida dunyo ahliga o‘zbek tilida murojaat qildi. Bobolar ruhi shod bo‘ldi o‘sha kuni, o‘zbek qaddini rostladi! Jahon Prezidentimiz tilida o‘zbek millati, o‘zbek xalqi g‘ururi va shijoatini his qildi. Balki har bir insonning o‘z tilida baralla so‘zlashi ham Vatan degan tuyg‘uning ziynatlaridandir!

Yoshim ulg‘aygani sayin bir haqiqatni ravshanroq anglayapman: Vatan qiymati hech qachon pasaymaydi, kamaymaydi! Ilgarigidek tez-tez borib zavq olgan onlarim siyraklashgan bo‘lsa-da, har qadamda menga peshvoz chiqadigan qishloq bag‘ri, odamlari Vatan mehrini qalbimga yanada teran anglatgandek tuyuladi. Shu yoshga kirib ko‘p yurtlarda bo‘ldim, necha davlatlarni kezdim. Uzoq yillardan beri kichik vatanimdan oz bo‘lsa-da, uzoqroqda istiqomat qilaman. Ammo yuragimda o‘sha, bolaligimda qalbu shuurimda qolib ketgan Vatan mayoq misoli qalbimga harorat beradi. Bugun ham bir borib kelishim bilan ko‘nglimdagi barcha g‘ubor ariydi, hech joyda tuymagan bir halovatni topaman. Ko‘ngildagi bu yo‘lchiroq meni har doim yaxshiliklarga undaydi, shu yoshimgacha nimadir yaxshi ish qilolgan bo‘lsam, bularning bariga o‘sha mayoq sabab deb o‘ylayman.

Fikr

VAZIYATNI TO‘G‘RI BAHOLASH — ENG MUHIM QOIDA

Yarim tun. O‘t o‘chirish mashinasi sirenasi ovozidan uyg‘onib ketdim. Ishqilib tinchlik bo‘lsin. Biror maxsus-taktik mashq bo‘lsa, mayli, biroq birovning uyi, mol-mulki yoki biror muassasasi yonishidan Yaratgan asrasin.

Muhiddin TINIBEKOV,
Favqulodda vaziyatlar vazirligi Fuqaro muhofazasi instituti o‘qituvchisi

Ikki yilcha oldin yangi mahallaga ko‘chib bordik. Ko‘p qavatli uyimiz yonidagi bir hovli yonib ketdi. Bir xonadondan uch kishi nobud bo‘ldi. Har kuni ishga o‘tar ekanman, shu uyga qayrilib qaray olmayman. Yong‘in tafsilotlari haqida ham bilmayman. Bilganim — bir oilaning necha yil yashagan qadrdon uyi yondi, oila uch jigarbandidan ayrildi...

Xalqimiz duo qilganida “O‘t balosidan asrasin”, deydi. Haqiqatan, o‘t balosi yomon. Ayniqsa, yozning quruq, quyoshli kunlarida olov tez kuchayadi va katta hududni qamrab oladi. Hatto qishda ham o‘t o‘chirish qiyinlashadigan holatlar bor. Shuning uchun yong‘inning oldini olish qoidalariga doimo amal qilish kerak. Xonadonlar, ishxonalarda elektr va gaz jihozlarini keraksiz paytda o‘chirib, ko‘chaga chiqishdan oldin qayta tekshirish doimiy qoidaga aylanishi shart. Hamisha sifatli va soz uskunalardan foydalanish lozim. Hatto oddiy telefon quvvatlagichni ham elektr tokidan uzmay ketish xatarli. Tashkilot va muassasalarda doimo o‘t o‘chirish moslamalari shay turmog‘i, maxsus xodimlar o‘qitib turilishi zarur.

Keyingi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda yong‘inlarga oid xabarlar tez-tez tarqalmoqda. Hali ko‘p qavatli uylardan birining ochiq ayvoni yongan, hali avtomobillarga gaz quyish shoxobchasi, hali bozor, hali nomdor obyekt... Bu xususda munosabatlar ham turlicha. Kimdir kimnidir ayblaydi.

Aslida, hammasi oddiy. Yong‘ingacha bo‘lgan vaziyatni to‘g‘ri baholash, o‘t chiqqanda to‘g‘ri harakat qilish zarur. Ko‘p qavatli uylarning ochiq ayvoni o‘t o‘chirish yo‘lagi uchun maxsus qoldirilgan. Kimdir bu joyda kir quritadi, kimdir omborxona qilib olgan. Xullas, hamma yashash tarziga yarasha foydalanadi. Bir kashanda yuqori qavatdan o‘chib ulgurmagan sigareta qoldig‘ini tashlab, pastdagi qo‘shnisining uyi yonishiga sabab bo‘lgan deb eshitdim. Chekkan odam buni hech qachon tan olmaydi, bir bechoraning uyi kuygani qoladi.

Bozorlarda ham xavfsizlik darajasi tez-tez tekshirilib turishi maqsadga muvofiq. Do‘kon egalari barcha elektr jihozlari o‘chganiga ishonch hosil qilib, keyin uyiga ketishi kerak. Ba’zida tekshiruvga borganda havo aylantirgich (ventilyator) tugmasidan o‘chirilgan, biroq elektr manbaidan uzilmagan bo‘ladi. Yoki konditsioner, dazmol, changyutkich bilan ham bog‘liq aynan shunday holat uchraydi. Elektrdan uzilmagan hech bir jihoz o‘t chiqmasligidan kafolatlanmagan. Bir kishining do‘koni yonsa, bozordagi boshqalar ham jabr ko‘radi.

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda Jomboydagi gaz quyish shoxobchasidagi yong‘in videosi tarqaldi. Kichkina yong‘inni o‘chirishga harakat qilinmagani oqibatida butun shoxobcha, ikki-uch mashina yonib ketdi. O‘t o‘chirish uskunalari qani? Xavfsizlik qoidalariga nega rioya qilinmadi? Shu sabab bo‘lib boshqa shoxobchalar rahbarlari va xodimlari o‘zlarini nazoratdan o‘tkazib olsa yaxshi bo‘lar edi.

Qurilish obyektlarida tez-tez o‘t chiqib turadi. Payvandlash uskunalarini ishlatish, elektr yo‘lini sinovdan o‘tkazish singari holatlarda yanada ehtiyot bo‘lish shart. Qurilish brigadasi boshliqlari, obyekt rahbarlari, xodimlari, albatta, yong‘inning oldini olish qoidalarini bilishi lozim.

> **“Vaziyatni to‘g‘ri baholamay, ijtimoiy tarmoqlarda xulosa yozish oson. O‘zimiz o‘t chiqmasligi uchun nima qilyapmiz, deydiganlar bormi? Hamma ishni o‘t chiqqanidan keyin baholamay, yong‘inning oldini olish uchun nimadir qilish ham jamiyat rivojiga hissa qo‘shishdir.**

Sarosima — eng katta dushman. Har qanday holatda vaziyatni to‘g‘ri baholab, tezkor xulosa chiqarib, ildam harakat qilish yong‘inni qisqa muddatda va oson o‘chirish imkonini beradi. Yong‘in haqidagi xabarlarga e’tibor qaratsak, o‘t o‘chirish mashinalari 5-10 daqiqada kerakli manzilga yetib borgani va olovni qisqa muddatda qurshab olib, o‘chirishga harakat qilayotganiga guvoh bo‘lamiz. Bularning hammasi mamlakatimizda eng so‘nggi rusumdagi o‘t o‘chirish mashinalari, asbob-uskunalaridan foydalanilayotgani, o‘t o‘chiruvchilar amaliy va nazariy o‘qib, malaka oshirayotgani tufaylidir.

Vaziyatni to‘g‘ri baholamay, ijtimoiy tarmoqlarda xulosa yozish oson. O‘zimiz o‘t chiqmasligi uchun nima qilyapmiz, deydiganlar bormi? Hamma ishni o‘t chiqqanidan keyin baholamay, yong‘inning oldini olish uchun nimadir qilish ham jamiyat rivojiga hissa qo‘shishdir.

Shu o‘rinda yana bir mulohaza. Ko‘p qavatli uylar, jamoat joylarini qurishda mashina turar joylari uchun ham o‘rin ajratishni qat’iy nazorat qilish kerak. Ba’zida kechalari “tez yordam” chaqirilsa, mashinalar o‘ta olmay, shifokorlar ancha masofani piyoda bosib o‘tadi. Shunday hollarda “O‘t chiqsa, nima bo‘ladi?” degan sovuq o‘y keladi xayolga.

Avvalo, hech kimning uyi kuymasin, hech bir tashkilot olov ichida qolmasin. Ammo hayotda ba’zan o‘t chiqib turadi. Har qanday holatda ehtiyotkor bo‘lish — eng muhim qoida. O‘t o‘chiriladi, zarar o‘rganiladi, qoplanadi. Ammo uy yoki tashkilot binosi oldingi holatiga kelguncha qancha asabbuzarlik bo‘ladi, xarajat qilinadi va eng achinarlisi, odamlar jabr ko‘radi.

O‘zbekiston birinchilardan bo‘lib telefon qurilmasiga favqulodda vaziyatlar bo‘yicha xabar jo‘natishni yo‘lga qo‘ydi. O‘z-o‘zidan bo‘ladigan ish emas, buning uchun aloqa kompaniyalari bilan shartnoma tuzish zarur. Is gazi, sel xavfi, botulizm, yong‘inning oldini olish bo‘yicha kelgan xabarlarni kim o‘qib, amal qiladi? Bunday xabarlar bitta insonning umri saqlanib qolishiga xizmat qilsa ham mutasaddilar oldiga qo‘ygan maqsadiga erishgan bo‘ladi.

Sirena ovozi tun qa’riga singib ketdi. Uyqu qochdi. Shu bahona gaz va elektr jihozlarini qayta ko‘zdan kechirdim. Siz ham shunday qiling, vatandosh. Barchamizni o‘t balosidan asrasin!

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-946.
34830 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Boboravshan G‘oziddinov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 01:00

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05